

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**AKADEMIK LITSEYLAR PEDAGOG KADRLARI
MALAKASINI OSHIRISH KURSI
“TARIX” yo‘nalishining**

**“MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA
O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIY JARAYONLAR”
MODULI BO‘YICHA
O‘QUV – USLUBIY MAJMUUA**

BUXORO-2025

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur ishchi o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining 2024-yil 29 dekabrdagi 5-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: **Sh.A.Hayitov** - BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası professori, t.f.d.

Taqrizchi: **K.J.Rahmonov**—BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti t.f.n.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	13
III. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	35
IV. GLOSSARIY	57
V. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:.....	71

I.ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan tarix yo‘nalishi pedagoglarni O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasiga oid bilimlar darajasini kengaytirish va chuqurlashtirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta‘minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari

Modulning maqsadi tinglovchilarni tarix yo‘nalishi pedagoglarning o‘quv jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta‘minlashlari uchun zarur bo‘ladigan mutaxassislikka oid kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta‘minlashdan iborat.

Modulning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayotidagi inqirozli holat.

- Markazning O‘zbekistonda amalga oshirgan qatag‘on siyosati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishdan iborat.

- tarixiy voqea va hodisalarning kelib chiqishi hamda rivojlanib borishiga ta‘sir etuvchi sabablarni anglash usullari, geografik nomlarni yaratilish qonuniyatlarini o‘zlashtirish, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va uning qit‘alar, hududlar bo‘yicha o‘ziga xosligini o‘zlashtirish;

- mazkur modulni o'qitishdagi jaxon mamlakatlarida qo'llanadigan tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

Modul yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

“Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosatini;
- “Paxta ishi”, “O'zbek ishi” nomli kompaniyalarni;
- aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasini;
- O'zbekistonda Prezident institutining joriy etilishi;
- O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlashi;
- zamonaviy tarix va uni o'rganishning muammolarini **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati;
- etnik mojarolar va ularning kelib chiqish sabablarini baholash ;
- milliy manfaatlar ustuvorligining o'sib borish;
- O'zbekiston SSRning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish;

- tarixiy taraqqiyotni anglashga nisbatan sivilizatsion yondashuvning mohiyatini tushunish;

- Mustaqillikning e'lon qilinish;
- insoniyat taraqqiyoti muammosiga nisbatan ishlab chiqilgan sintetik yondashuvni tahlil qilish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasining tashkil etish;
- mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlar;
- tarixning davrlarini taqqoslash, tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish;
- mustaqillikning e'lon qilinishi;
- davlatlarning tashkil topishi, davlat shakli, davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy jarayonlar, ichki va tashqi munosabatlar, harbiy salohiyat, insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o'rni haqida yozma ma'lumot berish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat	2	2	
2.	O'zbekistonda Prezident institutining joriy etilishi	4	2	2
3.	Mustaqillik eng avvalo xalq birligi va hamjihatligidir	2		2
	Jami:	8	4	4

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. XX ASR 80-YILLARI O'RTALARIDA RESPUBLIKA IJTIMOIIY-SIYOSIIY, IQTISODIIY VA MA'NAVIY HAYOTIDAGI INQIROZLI HOLAT (2 soat)

XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati. "Paxta ishi" "O'zbek ishi" nomli kompaniyalar. Aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasi. Farg'ona voqealari. 1989-yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar.

2- mavzu. O'ZBEKISTONDA PREZIDENT INSTITUTINING JORIY ETILISHI (2 SOAT)

Prezident institutining umumiy tushunchasi va davlat tizimidagi o'rni.. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va yangi siyosiy tizimga o'tish. Mustaqillikdan oldingi O'zbekiston siyosiy tizimi. Mustaqillikka erishish va yangi siyosiy tizimning zarurati. Prezident institutining vakolatlari va funksiyalari. Prezident institutining mustahkamlanishi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-AMALIY MASHG‘ULOT: O‘ZBEKISTONDA PREZIDENT INSTITUTINING JORIY ETILISHI (2 SOAT)

I.Karimov – O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti. Milliy manfaatlar ustuvorligining o‘tib borishi. O‘zbekiston SSRning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish, uni yangi va hayotiy mazmun bilan boyitish. Mehnatkashlarning, aholining hamma tabaqalari farovonligini oshirish, odamlarning talab-ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani tez sur‘atlar bilan rivojlantirish.

2-AMALIY MASHG‘ULOT: MUSTAQILLIK ENG AVVALO XALQ BIRLIGI VA HAMJIHATLIGIDIR (2 soat)

Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O‘zlikni anglashga intilishning kuchayishi. Siyosiy tizimdagi o‘zgarishlar. Mustaqillikning e‘lon qilinishi. O‘zbekiston Respublikasining tashkil etilishi. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo‘li.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Mustaqillikka erishish arafasida o'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta’limga asoslangan raqamli texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- video ma’ruzada zamonaviy interaktiv texnologiyalar yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalar;

o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda bulutli texnologiyaga asoslangan dasturiy vositalar, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Maxsus adabiyotlar

13. Qahramon Rajabov. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. Toshkent. Ma'naviyat. 2002
14. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: Sharq. 2000.
15. Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
16. Sagdullayev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
17. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. -T.: Uzbekistan. 2009.
18. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. (o'quv qo'llanma). - T.: Ma'rifat, 2009.
19. Yo'ldoshev S.V., Tojiboyev M. Etnotoponimika. O'quv qo'llanma/-Farg'ona: 2021.
20. Ahmadaliyev Y. Farg'ona viloyati toponimlari. Farg'ona., "Farg'ona". 2009
21. Gumilev L. Etnogenez i biosfera zemli. -L.: Gidrometizdat. 1990.
22. Bobrov I.V. i dr. Istoriya mirovix sivilizatsiy chast I. Uchebnoye posobiye. Tyumen 2004
23. Bobrov I.V. i dr. Istoriya mirovix sivilizatsiy chast II. Uchebnoye posobiye. Tyumen 2004
24. Sh.Ergashev. Qadimgi sivilizatsiyalar. - T.: O'zbekiston, Tixonravov Y.V. Geopolitika. M., 2000.
25. Gadjiyev K.S. Vvedeniye v geopolitiku. M., 2001.
26. Nartov N.A. Geopolitika. M., 2002.
27. Xo'janov B.A. Geosiyosat asoslari. T., 2002.
28. Tolipov F. Bolshaya strategiya Uzbekistana v kontekste geopoliticheskoy i ideologicheskoy transformatsii Sentralnoy Azii. T., 2005.
29. Safoyev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T., 2005.
30. Bhuvan Garg. Teaching of history. India. New Delhi.: Rajat publications. 2010.
- James B. M. Schick., Teaching History With a Computer: A Complete Guide for College Professors. USA. 2009.
31. Grinin L. YE. O stadiyax evolyutsii gosudarstva. Problemi teorii // Istoriya i sovremennost. 2006. № 1.
32. Gosudarstvo na Drevnem Vostoke. M., 2004.
33. Kasje S.I. Imperii genezis, struktura, funktsii // Kasje S.I. Politicheskiiye issledovaniya. M., 1997.

34. Subtelny M.E. Timurids in Transition Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. - Leiden-Boston, 2007.
35. Mazar Documents from Xinjiang and Ferghana (Facsimile) 3. Edited by A.Muminov, N.Abdulahadov, K.Yayoi. - Tokyo: Tokyo University of Foreign Studiyes, (StudiaCulturaeIslamicae, 88), 2007.- 234 p.

II. Internet saytlar

24. <http://natlib.uz>
25. <http://yedu.uz>
26. <http://lex.uz>
27. <http://lib.bimm.uz>
28. <http://ziyonet.uz>
29. <https://tarixinstituti.uz/uzb/>
30. <http://www.istedod.uz>

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL

TA’LIM METODLARI

Mashg‘ulotda jarayonida qo‘llaniladigan «Aqliy hujum» usuli

Aqliy hujum	- (breynstorming - miya buroni), amaliy va ilmiy muammolarni yechishda jamoa bilan ma’lumot yig‘ish
Usulni asosiy g‘oyasi	- g‘oyalar to‘plash, ularni baholash va tahlil qilish, ajratish. “Aqliy hujum”ni olib boruvchining xatti-harakati uchun bu g‘oya asosiy ko‘rsatgich bo‘lib, ishtirokchilarni imkoniyat qadar ko‘p g‘oyalar taklif qilishga undaydi.
Qoidalari	Imkoni boricha ko‘proq g‘oyalarni taklif etish (jamlash), ularni talqin qilish, muammolarni yechish va ularni doskaga yozib qo‘yish.
Ta’lim beruvchi	Qatnashchilarni 3-4 guruhga bo‘ladi va xar biriga muammolar taklif etadi (Ilova 1) - Ishtirokchilarni qo‘llab-qo‘vvatlaydi (imo-ishora, jilmayish, ha-yo‘q so‘zlari bilan); - yumshoq, ammo astoydil tinglovchilarni boshkalarni tanqid qilishdan qaytarib turadi; - har bir fikrni o‘zgartirmasdan doskaga yozdirib qo‘yadi; - tinglovchilarni so‘rovga kirishib ketishiga yordam berish va psixologik tuskinlikni yukotish uchun, oldingi yoki shu darsdan kutilmagan, original savollar berib mashq o‘tkazadi (blits so‘rov) (Ilova 2).
Fidbeyk	- har bir g‘oyani muhokama qilish; - eng to‘g‘ri g‘oyalarni qo‘llab-kuvvatlash

Aqliy hujumning maqsadi va qoidalari

Aqliy hujumni o'tkazishdan maqsad:

- muammoni hal qilish uchun g'oyalarni topish;
- g'oyalarni ularning ahamiyatligiga qarab tartiblash;
- faol fikrlash malakasini shakllantirish;
- kutilmagan g'oyalarni paydo bo'lish jarayonini namoyish qilish;
- topilgan g'oyalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

Aqliy hujum qoidalari:

- g'oyalarni ilgari surilishi bosqichida tanqid taqiqlanadi;
- original hatto fantastik g'oyalar rag'batlantiriladi;
- barcha g'oyalar yozib boriladi yoki qayd qilinadi;
- agar ma'qul topsa muallifning o'zi ham yozib boradi;
- "aqliy hujum" metodida qatnashchilar bir-biri bilan yuridik va ma'muriy jihatdan bog'liq bo'lmasligi zarur;
- tahlilchilar guruhi nisbatan samarali g'oyalarni tahlil qiladi, sintez qiladi, baholaydi va tanlaydi;
- ushbu tadbirni o'tkazishda Keynsning " iqtisodchilar adashsalar ham ularni g'oyasi kelajak uchun xizmat qiladi" degan qoidasiga amal qilish.

Natija:

- talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishiladi;
- vaqt ajratiladi va qilinadi;
- har bir talaba faollikka intiladi;
- ularda erkin fikrlash layoqati shakllanadi.

1. O'quv topshiriqlarini bajarish bo'yicha vazifalar

Guruhni 2 ta kichik guruhlariga bo'linadi va har bir guruh uchun savollar tarqatma material sifatida tarqatiladi.

Izoh: Qaysidir guruh to'la aniq javobni birinchi bo'lib topsa guruhni har bir a'zosiga 1.0 balldan baho qo'yiladi. Agarda guruhdan 1 yoki 2 ta talaba to'g'ri javob topsa u holda ularga 1.0. balldan rag'batlantiriladi.

Mavzu bo'yicha 1-guruh savollari:

1. Kim 1989-yil O'zbekiston SSR davlat rahbari etib tayinlangan?
2. 1990-yil 20-iyunda bo'lgan plenuemda qanday masalalar ko'rilgan?
3. O'zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasida qanday masalalar yozib qo'yilgan?
4. 1990-yilda O'zbekistondagi iqtisodiy ahvol qanday darajada edi?
5. 1990-yil boshlariga kelib sanoat korxonalarining ahvoli qay darajada edi?

Mavzu bo'yicha 2-guruh savollari:

1. 1991-yil fevral voqealari haqida nimalarni bilasiz?
2. 1991-yil 19-21 avgust voqealari haqida nimalarni bilasiz?
3. O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligi qachon e'lon qilingan?
4. Yurtimizda mustaqillik kuni qaysi sanada nishonlanadi?
5. 1990-yil 23-martda bo'lgan plenuemda qanday masalalar ko'rilgan?

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: YANGI UY QURMASDAN ESKISINI BUZMANG

REJA:

1. XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat.
2. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati. "Paxta ishi" "O'zbek ishi" nomli kompaniyalar.
3. Aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasi.

Tayanch iboralar: Paxta ishi, O'zbek ishi, turmush tarzining og'irlashuvi, Orol fojiasi, Farg'ona voqealari, tanglik holati, KPSS, Qayta qurish, I.A.Karimov, Mustaqillik tushunchasi

1. XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat.

80-yillarning o'rtalariga kelib, SSSRda tanglik holati keskin kuchaydi, u mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Mustabid tuzum sharoitida davlat mulki monopoliyasi va boshqaruvda ma'muriy-taqsimlash tizimi hukmronligi tobora kuchayib bordi, natijada ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari, yalpi mahsulot xajmi, mehnat unumdorligi shiddat bilan pasayib ketdi, ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalaridan, mehnat samaralari va shu kabilardan begonalashuvi yanada ortib bordi.

KPSSning ulkan, lekin kutilayotgan natijalarini, bermayotgan iqtisodiy siyosati butun ijtimoiy-siyosiy tizimning oqsashini oldindan belgilab berdi. Chunki bu vaqtga kelib, xalqning bunyodkorlik g'ayrati partiya-davlat tuzilmalarining siyosiy hukmronligi bilan butunlay siqib qo'yilgan edi.

80-yillarning o'rtalarida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston ittifoqda oxirgi o'rinlardai birini egallar edi. Aholi jon boshiga milliy

daromad hosil qilish O'zbekistonda o'rtacha ittifoq darajasiga qaraganda ikki baravar kam edi. O'zbekiston aholisining mamlakatdagi boshqa mintaqalarga nisbatan moddiy va ijtimoiy ne'matlar bilan ta'minlash darajasidagi farq jiddiy ravishda ortib ketgan edi.

Tub islohotlar o'tkazishda sustkashlik qilish ichki vaziyatning keskinlashuviga, yomon oqibatlarga olib kelish xavfini tug'dirdi. Boshi berk murakkab vaziyatdan chiqish yo'lini qiyinchilik bilan izlash boshlandi.

Nihoyat, 1985 yilniig bahorida KPSS MQning aprel plenumi sovet jamiyatini tubdan qayta-qurish, uning barcha sohalarini chuqur isloh qilish yo'lini e'lon qildi. «Qayta qurish» sovet jamiyatini rivojlantirishning ob'ektiv ehtiyoji, unda yashovchi millatlar va xalqlar manfaatlari taqozo etgan hayotiy zarurat sifatida ta'riflandi.

Avvalgi tugallanmagan islohotlardan farqli o'laroq 1985 yilda jamiyatni har tomonlama yangilashga o'tish zarurligi e'tirof qilindi.

Qayta qurishning tarkibiy qismlari sifatida jamiyat hayotini demokratlashtirish va tub iqtisodiy islohotlar o'tkazishdir, deb e'lon qilindi. O'sha yillardagi partiya-hukumat hujjatlarida jamiyatni «turg'unlik» illatlaridan tozalashga, uni «inqilobiy yangilash»ga oddiy inson extiyojlariga diqqat-e'tiborni kuchaytirishga chaqiriqlar yangi kuch bilan yangradi. Rahbarlikning eskirib qolgan shakllari va usullari, to'g'onoqlik va tanglik xolatlarning mavjudligi, jamiyatda oshkora tanqidning, fikrlar xilma-xilligining, hokimiyat tuzilmalarida va iqtisodiyotni boshqarshida demokratiyaning, Markaz bilan milliy o'lkalar manfaatlarida oqilona, nisbatning yo'qligi, inson omilining etarli darajada hisobga olinmasligi qoralandi. Biroq qayta-qurish «kontseptsiyasi» avvalboshdanoq noilmiy bo'lib, u mag'lubiyatga mahkum edi. Qayta-qurish borasidagi dastlabki tajribalarning ko'rsatishicha, mamlakat siyosiy rahbariyati birinchi kundanoq «qayta-qurish» mafkurasini anglab etishda nihoyatda soddalashgan nuqtai-nazar bilan yondoshdi.

Qayta-qurish «kontseptsiyasi» milliy respublikalarning hayotiy manfaatlar va muammolarini chuqur ilmiy taxlil qilishga, ularni bilishga asoslanmaganligi tufayli

amalga oshmay qoldi.

I.A.Karimov qayta-qurish siyosati davrida iqtisodiyotda ro'y bergan buzilishlarni ta'riflar ekan, bunday deb ta'kidlagan edi: «Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor munosabatlariga o'tishning turlicha yondoshuvlarga asoslangan dasturlari loyihalarining ko'pligi islohotlarning aniq maqsadi yo'qligidan, ularni ro'yobga chiqarish muddatlari «besh yuz kun» deb belgilab qo'yilishi esa zarur o'zgartirishlarning tub mohiyati va nixoyatda murakkabligi to'la anglab etilmaganligidan dalolat berar edi».

Iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi haqiqiy qonunlarning yo'qligi tovar va pul massasi o'rtasidagi nomutanosiblik, mehnat unumdorligi bilan ish haqi o'rtasidagi nisbatning buzilishiga olib keldi. Ko'pgina mahsulot turlarini ishlab chiqarish xajmi pasaydi, moddiy va moliyaviy nomutanosiblik kuchaydi, iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayib ketdi, tovarlar tanqisligi tobora kengayib bordi. Islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida 1989 yildan boshlab iqtisodiyotda, ijtimoiy va madaniy sohalarida tarkibiy o'zgarishlar qilish uchun ayrim huquqiy shart-sharoitlar yaratila boshlandi. Ana shu maqsadda bir qator muhim hujjatlar tasdiqlandi. Bu jarayon I.A.Karimov O'zbekiston Kompartiyasi MQning birinchi kotibi bo'lib saylanganidan so'ng (1989 yil iyun) sezilarli miqyosda faollashdi. Uning tashabbusi bilan xo'jalik yuritishning iqtisodiy usullarini o'zgartirish borasidagi ishlar jiddiy tus oldi, iqtisodiyotdagi ma'muriyatchilik va salbiy hodisalarga qarshi kurash kengayib bordi. Ijara haqidagi, mulkchilik va er to'g'risidagi qonunlar o'sha yillarda o'ta murakkab bo'lgan O'zbekiston hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga «qayta-qurish»ning «yakunlovchi» bosqichida mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari sohasidagi qo'ldan boy berilgan fikr erkinligining tiklanishi e'tiborga loyiq hodisa bo'ldi. Markaziy rahbariyatdan farqli o'laroq mulkchilik muammosiga O'zbekistonda ancha jiddiyroq yondoshildi, bu erda yuqorida sanab o'tilgan mulkchilik shakllari bilan bir qatorda xususiy mulkchilik ham joriy etila boshlandi.

2. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati. “Paxta ishi” “O'zbek ishi” nomli kompaniyalar.

Mustabid Sovet davlatida qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlari sanoat ishlab chiqarishniig yuqori samarada rivojlanishiga ob'ektiv ravishda to'siq bo'ldi. Markazning amriga bo'ysungan respublika industriyasi mahalliy aholining tub manfaatlarini hisobga olishga mo'jallanmagan edi, shu sababdan uni sotsialistik asosda isloh qilishga urinish muqarrar ravishda barbod bo'ldi. Xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari kabi, O'zbekiston iqtisodiyotida muhim hisoblangan agrar soha ham shunday qismatga uchradi. O'zbekistondagi bu sohadagi siyosat strategiyasi «qayta-qurish» yillarida umumittifoq agrar siyosatidan amalda farq qilmas edi. Avvalgidek bu siyosat Markaz manfaatlarini yo'lida paxtachilikni jadal rivojlantirishga qaratilgan edi.

I.Karimov boshliq siyosiy rahbariyat xalq xo'jaligini qayta-qurish doirasida mutaxassislar tayyorlash tizimiga ham bir qator o'zgartirishlar kiritdi. Ba'zi bir mutaxassisliklarni tayyorlash qisqartirildi, yangi sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi va ana shu yo'nalishda oliy o'quv yurtlarining tarkibi qayta ko'rib chiqildi, ya'ni yangi yo'nalishdagi institutlar va universitetlar ochildi, bir qator institutlarning yo'nalishi o'zgartirildi. Ta'kidlash lozimki, bu davrda O'zbekiston fani o'zining uyg'onish davrini boshidan kechirayotgan, tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha jiddiy izlanishlarga qo'l urilayotgan edi. 1991 yilda Fanlar Akademiyasi tarkibida Suv Muammolari instituti tashkil etildi. Fan bilan ishlab chiqarishni yaqinlashtirish maqsadida ba'zi institutlar qoshida ishlab chiqarish birlashmalari markazlari tashkil qilindi. Ijtimoiy gumanitar fanlar sohasi uchun "qayta qurish" uyg'onish va xurfikrlilik davri bo'lib xizmat qildi. Ilgari mumkin bo'lmagan mavzularni o'rganishga qisman bo'lsada imkon yaratildi. Falsafa, tarix, ayniqsa, Vatan tarixini o'rganish, uning uslubiyotiga, "oqilona dog'lar"ga doir masalalar faol muhokama etila boshlandi. Biroq, kommunistik mafkura yakkahokimligi sharoitida mazkur masalalarni to'liq hal etish mumkin emasdi.

Shunday qilib, 80-yillarning o'ratalaridan boshlangan "qayta-qurish" o'zbek milliy madaniyatida mavjud bo'lgan muammolarni hal eta olmadi, aksincha, ularni yanada keskinlashtirib yubordi. Chunki «qayta-qurish» madaniyat borasidagi mustabid sovet tuzumi siyosatini tamomila inkor etish asnosida yuz bermadi:

aksincha, ilgari siyosat yangi shaklda, eski mazmunni mustahkamlash tarzida davom etdi. Shuning uchun ham, “qayta qurish” milliy madaniyat taqdirida aytarliq darajada ijobiy rol o‘ynamadi.

“Gorbachevcha” «qayta-qurish» natijasida mamlakatda yalpi kommunistik tsenzura zaiflashdi va deyarli yo‘q holiga keltirildi, uzoq vaqtdan buyon kutib kelingan hurfiylik va matbuot erkinligi pallasi boshlandi. «Qayta-qurish»ning eng birinchi natijasi «oshkoralik» bo‘ldi. Oshkoralik tazyiqi ostida sotsialistik mafkura o‘zining «jozibadorligini» tobora yo‘qotib bordi. Oshkoralik natijasida sovet jamiyatining ahvolini tahlil qilish va mamlakat darajasidagi siyosiy raxbariyatning yo‘l qo‘ygan xatolariga birinchi bor ochiqchasiga baho berishga qo‘l urildi. Lekin shu bilan birga, “oshkoralik” O‘zbekiston uchun o‘zining bir qator salbiy tomonlari bilan ham namoyon bo‘ldi.

1983 yilda Markaz tomonidan ataylab o‘ylab topilgan uydirma asosida O‘zbekistonda paxtani terish va qayta ishlashdagi «o‘g‘rilik», «qo‘shib yozish» moliyaviy buzilishlarni tergov qilish bilan Markaziy prokuratura va ichki ishlar organlari maxsus shug‘ullandi. Buning natijasida respublikadagi jamoa xo‘jaliklari raislari va sovxoz direktorlarining 60%idan ko‘prog‘i, qishloq xo‘jaligi yetakchi mutaxassislarining qariyb 45%i, har uch paxtachilik brigadasi boshlig‘idan biri vazifasidan olib tashlandi. Biroq “paxta ishi” eng shov-shuvli ish sifatida butun ittifoqqa namoyon qilindi. Qator Rossiya gazetalarining zo‘r berishi tufayli “paxta ishi” “o‘zbeklar ishi”ga aylantirildi. “Paxta ishi”ni umumiy qoralanishining salbiy ruhi butun o‘zbek xalqiga nisbatan tadbiiq etildi, bu o‘z-o‘zidan adolatsizlik edi. O‘zbekistonga va o‘zbek xalqiga nisbatan qilingan bu adolatsizlik xalq ommasini sovetlar rejimiga nisbatan nafratini oshirdi, munosabatini o‘zgartirdi.

Respublikada tobora kuchayib borayotgan demokratik jarayonlar mustabid tuzum davrida yillar davomida to‘planib qolgan salbiy illatlarning yuzaga chiqishiga sabab bo‘ldi. 1989 yil may-iyun oylarida Farg‘ona, Toshkent viloyatlarida va Andijon shahrida millatlararo mojarolar ro‘y berdiki, u respublikada va butun mamlakatda g‘oyat darajada katta shov-shuvga sabab bo‘ldi hamda respublikada siyosiy vaziyatning keskin tus olishiga olib keldi. Bu mojarolar

shunchaki, oddiy bezorilikdan iboratdek ko'rinib, lekin uning zaminida mustabid sovet tuzumi yillarida to'planib, pishib etilgan, ertami-kechmi "portlash" kutilgan, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muammolar yotgan edi. Farg'ona fojialariga taalluqli ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, mesxeti-turklari uchun bu mojarolar mustabid tuzum aybi bilan urush davrida majburan tashlab chiqilgan ona-vatanlariga qaytib borishlari uchun bahona sifatida kerak bo'lgan. Mahalliy aholi esa bu mojaroga tabiiy ravishda qo'shib ketgan. Chunki joylarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga e'tibor berilmagan, mahalliy yoshlar o'rtasida ishsizlik ko'payib, borgan, aholi uy-joylar bilan ta'minlanmagan, uy qurish uchun uchastkalar ajratilmagan va hokazo. Bu muammolar to'planib, oxir-oqibatda millatlararo to'qnashuvlarni yuzaga keltirdi.

Respublikada keng munozaralarga sabab bo'lgan muammolardan biri o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi bo'ldi. Bu muammo yuzasidan demokratik kuchlar tomonidan boshlangan harakat qudratli tus oldi, unda ziyolilar, talabalar va yoshlar faol ishtirok etdilar. Matbuotda, televideniya va radioda o'zbek tilini rivojlantirish muammolari, davlat tili va boshqa tillarning huquqiy jihatlari, rus tilining vazifalari va maqomi xususida munozaralar avj oldirildi. Demokratik kuchlar qo'ygan masalani I.Karimov boshchiligidagi rahbariyat o'z vaqtida anglab etdi. Natijada, «O'zbekiston SSRning davlat tili to'g'risida»gi qonun 1989 yili oktabrda qabul qilindi. Bu qonunning qabul qilinishi o'zbek xalqi, shu xalq milliy o'z-o'zini anglashining o'sishi, respublikada millatlararo hamjihatlikning saqlanib qolishi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

3. Aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasi.

90-yillar boshida O'zbekiston dadillik bilan iqtisodiy mustaqillik va siyosiy suverenitetni qo'lga kiritish uchun amaliy harakat qila boshladi. 1990 yil 24 martdagi O'zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyasida O'zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimi ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qilindi. O'zbekiston Prezidenti lavozimining ta'sis etilishi mustaqillik uchun kurashdagi ilk qadam edi.

1990-yil 18-iyun kuni XII chaqiriq respublika Oliy Kengashining ikkinchi

sessiyasi ochildi. Deputatlarning taklifi bilan O'zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasini qabil qilish masalasi sessiyasi kun tartibiga kiritildi. Oliy kengashning doimiy komissiyalari, faol deputatlar va huquqshunos mutahassislar tomonidan ishlab chiqilgan Mustaqillik Deklaratsiyasi matni sessiyada qizg'in muhokama qilindi va 20-iyun kuni qabul qilindi.

Mustaqillik tushunchasi o'zida azaldan insoniyatning orzu-umidlarini, armon va iztiroblarini mujassam etgan. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. U hamisha har jihatdan o'zini erkin his qilishga, ozod yashashga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Yer sharining barcha mintaqalarida ozodlik uchun kurashni, shaklan turlicha, mohiyatan o'xshash bo'lgan hurriyatga intilish hodisalarini ko'p ko'rgan.

XX asr intihosida dunyoning qariyb uchdan bir qismida misli ko'rilmagan hodisalar sodir bo'ldi. Sotsializm deb atalgan totalitar tuzum, zo'ravonlik va tazyiqqa asoslangan kommunistik mafkura tanazzulga uchradi. Jahonga, Yer yuziga hokimi mutloqlikni da'vo etgan SSSR jamiyat sifatida ham, davlat sifatida ham «jar»ga quladi. Uning tarkibiga kirgan ittifoqdosh respublikalar tom ma'nodagi mustaqil davlat maqomini oldilar. Mustaqillikka erishish g'oyasi xalqimizga azaldan meros. Bu orzu avloddan avlodga o'tib, ming yilliklar qa'ridan bizgacha yetib kelmoqda.

XX asr 90-yillarining boshlariga kelib O'zbekistonda xalqning ana shu azaliy orzusini amalga oshirish kun tartibidagi bosh masala bo'lib qoldi.

Mamlakatda shunday vaziyat vujudga keldiki, bir tomondan: zo'ravonlikka asoslangan, ma'muriy buyruqbozlikka xos bo'lgan markazlashgan davlat saqlanib qoladimi yoki demokratik jarayonlar chuqurlashishi evaziga ittifoqdosh respublikalar suvereniteti ta'minlanadimi? – degan masala dolzarb bo'lib qoldi. Ikkinchi tomondan, o'sha davrdagi SSSR rahbariyati mamlakat ichkarisidagi vaziyatni to'g'ri baholay olmadi, milliy respublikalarda mustaqillikka erishishga intilishning tobora kuchayib borayotganining oldini ololmay qoldi.

SSSR Oliy Soveti ham, SSSR Prezidenti va Hukumati ham inqiroziy holatdan

chiqishning yo'lini topa olmay qoldi. Xullas, 90-yillarning boshlariga kelganda markaz va ittifoqdosh jumhuriyatlar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, markaziy hokimiyatning obro'yi pasayib ketdi. Siyosiy, iqtisodiy va xo'jalik hayoti boshqarilmay qoldi. Oqibatda turmushning barcha sohalaridagi salbiy ahvoldan xalqning kun sayin noroziligi ortib, turmush darajasi yomonlasha boshladi. Ishlab chiqarish va mehnat intizomi izdan chiqdi. Bu hol tabiiy ravishda xalqning ko'zini ochdi, endi u eskicha buyruqbozlik usulini qabul qila olmay qoldi.

Qisqa qilib aytganda, shu vaqtga kelib respublikalar suverenitetini va inson huquqlarini poymol qilgan totalitar buyruqbozlik boshqaruvining istiqbolsiz ekanligini hayotning o'zi ko'rsata boshladi.

Buni birgina sobiq SSSRda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish hamda Yangi Ittifoq Shartnomasi tayyorlash borasidagi natijasiz qadamlarda ham ko'rsa bo'ladi.

Shuni aytish kerakki, sobiq Ittifoqda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiga o'tkazish masalasi 1987-yili xalq deputatlari II syezdi qarori va iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga qaratilgan Hukumat Dasturida tilga olingan, u 1990- yil may oyida Oliy Sovet III sessiyasida muhokama qilingan edi.

Xalq deputatlari Hukumat Dasturini muhokama qilar ekanlar, bozor iqtisodiga o'tish obyektiv zaruriyat, bundan boshqa yo'l yo'q, degan xulosaga keldilar. SSSR Oliy Soveti III sessiyasining «Boshqariladigan bozor iqtisodiga o'tish haqida»gi qarorida bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiy islohotlarning asosiy mazmunini tashkil qiladi, deb qayd etildi. Shu bois bu boradagi Hukumat konsepsiyasini deputatlar fikr-mulohazalari asosida qayta ishlash va 1990-yil 1-sentabriga tayyorlash belgilandi.

SSSR Rahbariyatida shu yo'nalishdagi amaliy ishlar qizg'in tus oldi. 1990-yil 25-iyulda SSSR Prezidentlik Kengashida Bosh Ministrning mamlakatni bozor iqtisodiyotiga o'tkazish yuzasidan qo'shimcha choralar haqidagi axboroti tinglandi. 1990-yil 27-iyuli va 30-avgustida SSSR Prezidentining olimlar, mutaxassislar, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan iqtisodiy islohotlar mavzuidagi uchrashuvi bo'ldi.

6-avgustda esa mamlakat Prezidenti M.Gorbachyovning «Yangi Ittifoq Shartnomasining asosi sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning Ittifoq Dasturi Konsepsiyasini tayyorlash haqida» Farmoni e'lon qilindi. Bu vazifani bajarish uchun SSSR va RSFSR rahbarlari tomonidan S.Shatalin, I.Petrakov, L.Abalkin, G.Yavlinskiy, S.Aleksenko, V.Vavilov, A.Grigoryev, M.Zadorniy, V.Martinov, V. Mashchits, A.Mixaylov, B.Fedorov, T.Yarigina va Y.Yasinlardan iborat komissiya tuzildi. Komissiyaga 1990-yil sentabridan kechikmasdan Hukumat Dasturini ishlab chiqish topshirildi.

1990-yil sentabri boshlarida SSSR Oliy Kengashi IV sessiyasida N.Rijkov «Boshqariladigan bozor iqtisodiga o'tishga tayyorgarlik va mamlakat xalq xo'jaligida barqarorlikni vujudga keltirish haqida» ma'ruza qildi. Unda deputatlarning avvalgi fikrlari inobatga olingan variant ishlab chiqilgani aytilsa-da, sessiya Hukumat Dasturini qabul qilmadi. Buning muhim sababi deputatlarda Hukumatga nisbatan ishonch yo'qola borgan edi. Ayni chog'da Hukumat Dasturi sobiq Ittifoqni saqlab qolishni, shuningdek iqtisodiyotni sotsialistik yo'ldan rivojlantirishni ko'zda tutar edi.

1990-yil 11-sentabrda RSFSR Oliy Soveti II sessiyasi S.Shatalinning «500 kun» Programmasini qabul qildi. Unda quyidagi masalalar ko'tarilgan edi:

- Fuqarolarni mulkka egalik huquqini, iqtisodiy mustaqillikni, erkin iste'mol bozori va unda erkin narx;
- korxonaning mustaqil iqtisodiy faoliyat huquqi;
- ittifoqdosh respublikalarning mutlaq suvereniteti;
- aholi turmush darajasini pasaytirmaslikni ko'zda tutar edi.

SSSR Oliy Sovetining 21-sentabrda bo'lib o'tgan IV sessiyasida bu Dastur ham qabul qilinmadi. 1990-yil 24-sentabrda sessiya «Xalq xo'jaligini barqarorlashtirishning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari»ni muhokama qilib, Hukumat Dasturi va S.Shatalin Dasturidan iborat Yagona Dastur ishlab chiqishga qaror qildi. 1990-yil 18-oktabrda sessiya: «Bozor iqtisodiyotiga o'tish jahon amaliyotidan kelib chiqqan zarurat, ammo u iqtisodiyotning sotsialistik yo'nalishiga ziyon yetkazmaydi», – deb xulosa berdi.

Demak, 80-yillar oxiriga kelib, sobiq mamlakatda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishni hayotning o'zi kun tartibiga qo'ya boshladi va uning huquqiy asoslarini yaratishni zaruratga aylantirdi. Shunday bo'lsa-da, 1990-1991-yillarda iqtisodiyot orqaga qarab keta boshladi va xalqning turmush tarzi, sharoiti yomonlasha bordi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tanazzulga yuz tuta boshladi.

Mutaxassislar ana shunday tisarilish hodisasini mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga uchta yo'nalishdagi kuchlar manfaatlari to'qnashgani bilan izohlaydilar. Jumladan:

Birinchi kuchlar – N.Rijkov va V.Pavlov Dasturi tarafdorlari. Ular sobiq SSSRni saqlab qolish, xalq xo'jaligini markazdan boshqarish, huquqni ko'proq markazda to'plash niyatida edilar. Ular iqtisodiyotni rivojlantirishda sotsialistik yo'ldan voz kechmaslikni talab qilar edilar.

Ikkinchi kuchlar – S.Shatalin guruhi a'zolari tarafdorlari. Ular SSSRni tarqatib yuborish, ittifoqdosh respublikalar o'rnida suveren, Mustaqil Davlatlar tuzish, cheksiz xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, kolxoz va sovxozlarni tugatib, fermer xo'jaliklari tuzishni ko'zda tutdilar. Bu mohiyatan iqtisodiy rivojlanishning sotsialistik yo'lidan voz kechishni bildirar edi.

Uchinchi kuchlar – bu M.Gorbachyov Dasturini quvvatlovchilar. Ular murosa yo'lini qidirib, yuqorida tilga olingan har ikki dastur yo'nalishlarini uyg'unlashtirish va SSSRni saqlab qolish, markazlashgan ma'muriy buyruqbozlik hokimiyatini yo'qotmaslik, «шоковая Терапия» («falaj qilib davolash») usulidan foydalanish g'oyasini ilgari surar edi. Yangi Ittifoq Shartnomasini tayyorlash ham shu maqsadlarga yo'naltirilgan edi. Jumladan, yangi Ittifoq Shartnomasida mamlakat nomini ham «Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi» deb emas, «Mustaqil Sovet Respublikalari», «Mustaqil Davlatlar Ittifoqi» deb atash to'g'risidagi takliflar ham o'rta tashlana boshladi.

Shunday qilib, sobiq SSSR ijtimoiy taraqqiyotida uchta yo'nalish – totalitarizmga qaytish, jahon tajribasiga xos transformatsiya va sotsialistik

yoʻnalishdagi demokratik kuchlar toʻqnashib qolgan edi. Tabiiyki, bu mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tanazzulni vujudga keltirgan edi.

Ana shunday ziddiyatli bir sharoitda Oʻzbekiston rahbariyati bu yoʻnalishlarning nomaqbul ekanligini aniq-ravshan koʻrdi va respublika xalq xoʻjaligini bozor iqtisodiyotiga oʻtkazishning oʻziga xos yoʻlini Mustaqil tarzda oʻzi belgilay boshladi. Avvalo, «Oʻzbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasini» tayyorlashga kirishildi. Konsepsiya respublika Davlat Reja qoʻmitasi, Moliya vazirligi, boshqa vazirliklar, idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari, viloyatlar va Toshkent shahar ijroiya qoʻmitalari bilan hamkorlikda tayyorlandi. Unga koʻra, «Oʻzbekiston xalq xoʻjaligini sogʻlomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga oʻtishning asosiy prinsiplari» ishlab chiqildi va u 1990-yil 17-oktabrida umumxalq muhokamasi uchun eʼlon qilindi.

1990-yil oktabri oxirida Oʻzbekiston SSR Oliy Kengashi IV sessiyasida bu masala yuzasidan Hukumatning hisoboti eshitildi.

Oliy Kengash sessiyasi «vujudga kelgan ahvoldan chiqishning yoʻlini... respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga erishish asosida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va jadallashtirishdan iborat» deb hisobladi.

Shuning uchun ham sessiya respublika Hukumati Dasturini maʼqulladi va Oʻzbekiston Ministrlar Sovetiga «Oʻzbekiston SSR mulkiga egalik qilish, uni tasarruf etish, taqsimlash va undan foydalanish masalalari yuzasidan respublikaning suveren huquqlarini amalga oshirishning samarali amal qiluvchi mexanizmini yaratish boʻyicha asoslangan takliflar tayyorlash, shuningdek, 1-iyungacha Oʻzbekiston Oliy Sovetiga iqtisodiy tizim masalalari va yer, yer osti hamda boshqa tabiiy boyliklarni, ishlab chiqarish korxonalarini Oʻzbekiston SSR mulkiga oʻtkazish boʻyicha Oʻzbekiston SSR Konstitutsiyasiga kiritiladigan oʻzgarishlar toʻgʻrisida Qonun loyihasi kiritishni topshirdi.

Hukumat Dasturiga koʻra, quyidagilar Oʻzbekiston xalq xoʻjaligini sogʻlomlashtirish va bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich oʻtishning asosiy yoʻnalishlari qilib belgilandi:

Mustaqil davlat boʻlmish Oʻzbekiston:

– boshqa respublikalar bilan muvofiqlashtirilgan mustaqil ijtimoiy va iqtisodiy siyosatni xalq xo‘jaligini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi pul bilan ta‘minlash sohasida suveren huquqlarini amalga oshiradi, xo‘jalik turmushi va madaniy turmushdagi milliy o‘ziga xoslik saqlanib qolishini ta‘minlaydi;

– boshqa respublikalar bilan o‘z iqtisodiy aloqalarini ekvivalentlik va o‘zaro manfaatdorlik asosida mustaqil hal etadi, bu aloqalarni mamlakatning yaxlit xalq xo‘jalik kompleksi doirasida o‘zaro shartnomalar va bitimlar bilan tartibga soladi;

– mahalliy Sovetlarning mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni keng rivojlantirish, uning mulkiy va moliyaviy negizini mustahkamlash huquqlariga kafolat beradi;

– o‘z ixtiyorida bo‘lgan hamma vositalar bilan mehnat jamoalarining va fuqarolarning iqtisodiy huquqlarini mustahkamlashga ko‘maklashadi, shu huquqlarning har tomonlama himoya qilinishini ta‘minlaydi.

Shuningdek, ushbu hujjatda O‘zbekiston SSR iqtisodiy Mustaqilligini kengaytirishning bosh maqsadi iqtisodiyotning jo‘shqin, yuksak samarali, ekologik jihatdan xatarsiz rivojlanishini, aholining hozirgi zamon turmush standartlari darajasidagi farovonligini, ijtimoiy adolat va himoyalaniшни ta‘minlaydigan yangi xo‘jalik-huquqiy sharoitlarni shakllantirishdan iborat qilib belgilandi.

Nazorat savollari:

1. Kim 1989-yil O‘zbekiston SSR davlat rahbari etib tayinlangan?
2. 1990-yil 20-iyunda bo‘lgan plenuemda qanday masalalar ko‘rilgan?
3. O‘zbekistoning Mustaqillik Deklaratsiyasida qanday masalalar yozib qo‘yilgan?
4. 1990-yilda O‘zbekistondagi iqtisodiy ahvol qanday darajada edi?
5. 1990-yil boshlariga kelib sanoat korxonalarining ahvoli qay darajada edi?

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Қаҳрамон Ражабов. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Тошкент. Маънавият. 2002
2. Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: Sharq. 2000.
3. Sagdullayev va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.

4. Sagdullayev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
5. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. 1-jild. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
6. Istoriya Uzbekistana. Tashkent: Fan, 2012.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-2-3-kitoblar. Toshkent: Sharq, 2000.
8. Sagdullaev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent, 2000.
9. Leonid Levitin. Uzbekistan on a historical Threshold. England: Cambridge, 2001.
10. Mingnorov A. Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy-siyosiy tashkilotlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
11. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy to'plam. №1. Toshkent: Universitet, 1999.
12. O'zbekiston tarixi. Toshkent, 2003.
13. Qahramon Rajabov. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
14. Dono Ziyoeva. Bosmachilik: haqiqat va uydirma. Toshkent: O'zbekiston, 2000.
15. Qahramon Rajabov. Mustaqil Turkiston fikri uchun mushohodalar. Toshkent: O'zbekiston, 2000.

IV. Internet saytlar

16. <http://natlib.uz>-Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
17. <http://yedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
18. <http://lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
19. <http://lib.bimm.uz>- Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
20. <http://ziyonet.uz>- Ta'lim portali ZiyonET
21. <https://tarixinstituti.uz/uzb/>Bo'limlar
22. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti
23. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.

2-mavzu: O‘ZBEKISTONDA PREZIDENT INSTITUTINING JORIY ETILISHI (2 soat)

REJA:

- 1.I.Karimov – O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti.**
- 2.Milliy manfaatlar ustuvorligining o‘tib borishi.**
- 3.O‘zbekiston SSRning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish.**

Tayanch iboralar: O‘zbekiston SSR, I.Karimov, hududlar bo‘yicha o‘ziga xosligi. yangi Konstitutsiyasini qabul qilinishi, iqtisodiy o‘zgarishlar, qishloq xo‘jaligini isloh qilishdagi ziddiyatli holatlar, siyosiy mustaqilligini mustahkamlash.

1. I.Karimov – O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti.

1990-yil 24-martdagi O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyasida O‘zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimi ta’sis etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. O‘zbekiston Prezidenti lavozimining ta’sis etilishi mustaqillik uchun kurashdagi ilk qadam edi.

1990-yil 18-iyun kuni XII chaqiriq respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi ochildi. Deputatlarning taklifi bilan O‘zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasini qabil qilish masalasi sessiyasi kun tartibiga kiritildi. Oliy kengashning doimiy komissiyalari, faol deputatlar va huquqshunos mutahassislar tomonidan ishlab chiqilgan Mustaqillik Deklaratsiyasi matni sessiyada qizg‘in muhokama qilindi va 20-iyun kuni qabul qilindi.

Mustaqillik tushunchasi o‘zida azaldan insoniyatning orzu-umidlarini, armon va iztiroblarini mujassam etgan. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. U hamisha har jihatdan o‘zini erkin

his qilishga, ozod yashashga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Yer sharining barcha mintaqalarida ozodlik uchun kurashni, shaklan turlicha, mohiyatan o'xshash bo'lgan hurriyatga intilish hodisalarini ko'p ko'rgan.

XX asr intihosida dunyoning qariyb uchdan bir qismida misli ko'rilmagan hodisalar sodir bo'ldi. Sotsializm deb atalgan totalitar tuzum, zo'ravonlik va tazyiqqa asoslangan kommunistik mafkura tanazzulga uchradi. Jahonga, Yer yuziga hokimi mutloqlikni da'vo etgan SSSR jamiyat sifatida ham, davlat sifatida ham «jar»ga quladi. Uning tarkibiga kirgan ittifoqdosh respublikalar tom ma'nodagi mustaqil davlat maqomini oldilar. Mustaqillikka erishish g'oyasi xalqimizga azaldan meros. Bu orzu avloddan avlodga o'tib, ming yilliklar qa'ridan bizgacha yetib kelmoqda.

XX asr 90-yillarining boshlariga kelib O'zbekistonda xalqning ana shu azaliy orzusini amalga oshirish kun tartibidagi bosh masala bo'lib qoldi.

Mamlakatda shunday vaziyat vujudga keldiki, bir tomondan: zo'ravonlikka asoslangan, ma'muriy buyruqbozlikka xos bo'lgan markazlashgan davlat saqlanib qoladimi yoki demokratik jarayonlar chuqurlashishi evaziga ittifoqdosh respublikalar suvereniteti ta'minlanadimi? – degan masala dolzarb bo'lib qoldi. Ikkinchi tomondan, o'sha davrdagi SSSR rahbariyati mamlakat ichkarisidagi vaziyatni to'g'ri baholay olmadi, milliy respublikalarda mustaqillikka erishishga intilishning tobora kuchayib borayotganining oldini ololmay qoldi.

SSSR Oliy Soveti ham, SSSR Prezidenti va Hukumati ham inqiroziy holatdan chiqishning yo'lini topa olmay qoldi. Xullas, 90-yillarning boshlariga kelganda markaz va ittifoqdosh jumhuriyatlar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, markaziy hokimiyatning obro'yi pasayib ketdi. Siyosiy, iqtisodiy va xo'jalik hayoti boshqarilmay qoldi. Oqibatda turmushning barcha sohalaridagi salbiy ahvoldan xalqning kun sayin noroziligi ortib, turmush darajasi yomonlasha boshladi. Ishlab chiqarish va mehnat intizomi izdan chiqdi. Bu hol tabiiy ravishda xalqning ko'zini ochdi, endi u eskicha buyruqbozlik usulini qabul qila olmay qoldi.

Qisqa qilib aytganda, shu vaqtga kelib respublikalar suverenitetini va inson

huquqlarini poymol qilgan totalitar buyruqbozlik boshqaruvining istiqbolsiz ekanligini hayotning o'zi ko'rsata boshladi.

Buni birgina sobiq SSSRda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish hamda Yangi Ittifoq Shartnomasi tayyorlash borasidagi natijasiz qadamlarda ham ko'rsa bo'ladi.

Shuni aytish kerakki, sobiq Ittifoqda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiga o'tkazish masalasi 1987-yili xalq deputatlari II syezdi qarori va iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga qaratilgan Hukumat Dasturida tilga olingan, u 1990- yil may oyida Oliy Sovet III sessiyasida muhokama qilingan edi.

Xalq deputatlari Hukumat Dasturini muhokama qilar ekanlar, bozor iqtisodiga o'tish obyektiv zaruriyat, bundan boshqa yo'l yo'q, degan xulosaga keldilar. SSSR Oliy Soveti III sessiyasining «Boshqariladigan bozor iqtisodiga o'tish haqida»gi qarorida bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiy islohotlarning asosiy mazmunini tashkil qiladi, deb qayd etildi. Shu bois bu boradagi Hukumat konsepsiyasini deputatlar fikr-mulohazalari asosida qayta ishlash va 1990-yil 1-sentabriga tayyorlash belgilandi.

SSSR Rahbariyatida shu yo'nalishdagi amaliy ishlar qizg'in tus oldi. 1990-yil 25-iyulda SSSR Prezidentlik Kengashida Bosh Ministrning mamlakatni bozor iqtisodiyotiga o'tkazish yuzasidan qo'shimcha choralar haqidagi axboroti tinglandi. 1990-yil 27-iyuli va 30-avgustida SSSR Prezidentining olimlar, mutaxassislar, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan iqtisodiy islohotlar mavzuidagi uchrashuvi bo'ldi.

6-avgustda esa mamlakat Prezidenti M.Gorbachyovning «Yangi Ittifoq Shartnomasining asosi sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning Ittifoq Dasturi Konsepsiyasini tayyorlash haqida» Farmoni e'lon qilindi. Bu vazifani bajarish uchun SSSR va RSFSR rahbarlari tomonidan S.Shatalin, I.Petrakov, L.Abalkin, G.Yavlinskiy, S.Aleksenko, V.Vavilov, A.Grigoryev, M.Zadorniy, V.Martinov, V. Mashchits, A.Mixaylov, B.Fedorov, T.Yarigina va Y.Yasinlardan iborat komissiya tuzildi. Komissiyaga 1990-yil sentabridan kechikmasdan Hukumat Dasturini ishlab chiqish topshirildi.

1990-yil sentabri boshlarida SSSR Oliy Kengashi IV sessiyasida N.Rijkov «Boshqariladigan bozor iqtisodiga o'tishga tayyorgarlik va mamlakat xalq xo'jaligida barqarorlikni vujudga keltirish haqida» ma'ruza qildi. Unda deputatlarning avvalgi fikrlari inobatga olingan variant ishlab chiqilgani aytilsa-da, sessiya Hukumat Dasturini qabul qilmadi. Buning muhim sababi deputatlarda Hukumatga nisbatan ishonch yo'qola borgan edi. Ayni chog'da Hukumat Dasturi sobiq Ittifoqni saqlab qolishni, shuningdek iqtisodiyotni sotsialistik yo'ldan rivojlantirishni ko'zda tutar edi.

1990-yil 11-sentabrda RSFSR Oliy Soveti II sessiyasi S.Shatalinning «500 kun» Programmasini qabul qildi. Unda quyidagi masalalar ko'tarilgan edi:

- Fuqarolarni mulkka egalik huquqini, iqtisodiy mustaqillikni, erkin iste'mol bozori va unda erkin narx;
- korxonaning mustaqil iqtisodiy faoliyat huquqi;
- ittifoqdosh respublikalarning mutlaq suvereniteti;
- aholi turmush darajasini pasaytirmaslikni ko'zda tutar edi.

SSSR Oliy Sovetining 21-sentabrda bo'lib o'tgan IV sessiyasida bu Dastur ham qabul qilinmadi. 1990-yil 24-sentabrda sessiya «Xalq xo'jaligini barqarorlashtirishning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari»ni muhokama qilib, Hukumat Dasturi va S.Shatalin Dasturidan iborat Yagona Dastur ishlab chiqishga qaror qildi. 1990-yil 18-oktabrda sessiya: «Bozor iqtisodiyotiga o'tish jahon amaliyotidan kelib chiqqan zarurat, ammo u iqtisodiyotning sotsialistik yo'nalishiga ziyon yetkazmaydi», – deb xulosa berdi.

Demak, 80-yillar oxiriga kelib, sobiq mamlakatda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishni hayotning o'zi kun tartibiga qo'ya boshladi va uning huquqiy asoslarini yaratishni zaruratga aylantirdi. Shunday bo'lsa-da, 1990-1991-yillarda iqtisodiyot orqaga qarab keta boshladi va xalqning turmush tarzi, sharoiti yomonlasha bordi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tanazzulga yuz tuta boshladi.

2. Milliy manfaatlar ustuvorligining o‘zib borishi.

Mutaxassislar ana shunday tisarilish hodisasini mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga uchta yo‘nalishdagi kuchlar manfaatlari to‘qnashgani bilan izohlaydilar. Jumladan:

Birinchi kuchlar – N.Rijkov va V.Pavlov Dasturi tarafdorlari. Ular sobiq SSSRni saqlab qolish, xalq xo‘jaligini markazdan boshqarish, huquqni ko‘proq markazda to‘plash niyatida edilar. Ular iqtisodiyotni rivojlantirishda sotsialistik yo‘ldan voz kechmaslikni talab qilar edilar.

Ikkinchi kuchlar – S.Shatalin guruhi a‘zolari tarafdorlari. Ular SSSRni tarqatib yuborish, ittifoqdosh respublikalar o‘rnida suveren, Mustaqil Davlatlar tuzish, cheksiz xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, kolxoz va sovxozlarni tugatib, fermer xo‘jaliklari tuzishni ko‘zda tutdilar. Bu mohiyatan iqtisodiy rivojlanishning sotsialistik yo‘lidan voz kechishni bildirar edi.

Uchinchi kuchlar – bu M.Gorbachyov Dasturini quvvatlovchilar. Ular murosa yo‘lini qidirib, yuqorida tilga olingan har ikki dastur yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirish va SSSRni saqlab qolish, markazlashgan ma‘muriy buyruqbozlik hokimiyatini yo‘qotmaslik, «шоковая Терапия» («falaj qilib davolash») usulidan foydalanish g‘oyasini ilgari surar edi. Yangi Ittifoq Shartnomasini tayyorlash ham shu maqsadlarga yo‘naltirilgan edi. Jumladan, yangi Ittifoq Shartnomasida mamlakat nomini ham «Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi» deb emas, «Mustaqil Sovet Respublikalari», «Mustaqil Davlatlar Ittifoqi» deb atash to‘g‘risidagi takliflar ham o‘rtaga tashlana boshladi.

Shunday qilib, sobiq SSSR ijtimoiy taraqqiyotida uchta yo‘nalish–totalitarizmga qaytish, jahon tajribasiga xos transformatsiya va sotsialistik yo‘nalishdagi demokratik kuchlar to‘qnashib qolgan edi. Tabiiyki, bu mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tanazzulni vujudga keltirgan edi.

Ana shunday ziddiyatli bir sharoitda O‘zbekiston rahbariyati bu yo‘nalishlarning nomaqbul ekanligini aniq-ravshan ko‘rdi va respublika xalq xo‘jaligini bozor iqtisodiyotiga o‘tkazishning o‘ziga xos yo‘lini Mustaqil tarzda

o'zi belgilay boshladi. Avvalo, «O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasini» tayyorlashga kirishildi. Konsepsiya respublika Davlat Reja qo'mitasi, Moliya vazirligi, boshqa vazirliklar, idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari, viloyatlar va Toshkent shahar ijroiya qo'mitalari bilan hamkorlikda tayyorlandi. Unga ko'ra, «O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy prinsiplari» ishlab chiqildi va u 1990-yil 17-oktabrida umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilindi.

1990-yil oktabri oxirida O'zbekiston SSR Oliy Kengashi IV sessiyasida bu masala yuzasidan Hukumatning hisoboti eshitildi.

Oliy Kengash sessiyasi «vujudga kelgan ahvoldan chiqishning yo'lini... respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga erishish asosida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va jadallashtirishdan iborat» deb hisobladi.

Shuning uchun ham sessiya respublika Hukumati Dasturini ma'qulladi va O'zbekiston Ministrlar Sovetiga «O'zbekiston SSR mulkiga egalik qilish, uni tasarruf etish, taqsimlash va undan foydalanish masalalari yuzasidan respublikaning suveren huquqlarini amalga oshirishning samarali amal qiluvchi mexanizmini yaratish bo'yicha asoslangan takliflar tayyorlash, shuningdek, 1-iyungacha O'zbekiston Oliy Sovetiga iqtisodiy tizim masalalari va yer, yer osti hamda boshqa tabiiy boyliklarni, ishlab chiqarish korxonalarini O'zbekiston SSR mulkiga o'tkazish bo'yicha O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga kiritiladigan o'zgarishlar to'g'risida Qonun loyihasi kiritishni topshirdi.

Hukumat Dasturiga ko'ra, quyidagilar O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tishning asosiy yo'nalishlari qilib belgilandi:

Mustaqil davlat bo'lmish O'zbekiston:

- boshqa respublikalar bilan muvofiqlashtirilgan mustaqil ijtimoiy va iqtisodiy siyosatni xalq xo'jaligini o'zi boshqarish va o'zini o'zi pul bilan ta'minlash sohasida suveren huquqlarini amalga oshiradi, xo'jalik turmushi va madaniy turmushdagi milliy o'ziga xoslik saqlanib qolishini ta'minlaydi;

- boshqa respublikalar bilan o'z iqtisodiy aloqalarini ekvivalentlik va o'zaro

manfaatdorlik asosida mustaqil hal etadi, bu aloqalarni mamlakatning yaxlit xalq xo‘jalik kompleksi doirasida o‘zaro shartnomalar va bitimlar bilan tartibga soladi;

- mahalliy Sovetlarning mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni keng rivojlantirish, uning mulkiy va moliyaviy negizini mustahkamlash huquqlariga kafolat beradi;

- o‘z ixtiyorida bo‘lgan hamma vositalar bilan mehnat jamoalarining va fuqarolarning iqtisodiy huquqlarini mustahkamlashga ko‘maklashadi, shu huquqlarning har tomonlama himoya qilinishini ta‘minlaydi.

Shuningdek, ushbu hujjatda O‘zbekiston SSR iqtisodiy Mustaqilligini kengaytirishning bosh maqsadi iqtisodiyotning jo‘shqin, yuksak samarali, ekologik jihatdan xatarsiz rivojlanishini, aholining hozirgi zamon turmush standartlari darajasidagi farovonligini, ijtimoiy adolat va himoyalaniшни ta‘minlaydigan yangi xo‘jalik-huquqiy sharoitlarni shakllantirishdan iborat qilib belgilandi.

Ayni vaqtda Konsepsiyada maqsadga erishish yo‘lidagi vazifalarni hal etish, jumladan, respublika bilan Ittifoqning o‘zaro majburiyatlari va o‘zaro mas‘uliyati asosida O‘zbekiston SSR bilan SSR Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslariga aniqlik kiritish;

- davlat mulkining haddan tashqari markazlashuvini va byurokratik tashkil etilishini bartaraf qilish;

- mulkchilikning xilma-xil shakllarini rivojlantirish, bu shakllarning teng huquqliligi va musobaqalashuvini ta‘minlash;

- asosan, iqtisodiy usullar negizida respublikaning xalq xo‘jaligi davlat boshqaruviga o‘tish, rejalashtirish, moliya-budjet, bank tizimini sifat jihatidan o‘zgartirish, mehnat munosabatlarini va tabiatdan foydalanishni tartibga solish;

- bozor mexanizmlarini vujudga keltirish, tovarlar, xizmatlar, moliya-kredit resurslariga talab va taklifni tartibga soladigan narx va boshqa vositalarning ahamiyatini oshirish, O‘zbekiston SSRning ichki, O‘rta Osiyo respublikalari va Qozog‘iston mintaqa bozorini rivojlantirish;

- barcha fuqarolarning qobiliyatlaridan to‘la-to‘kis foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, aholining kam daromadli tabaqalarini qo‘llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlodni tarbiyalash, sog‘liqni

saqlash, maorif, fan, madaniyat va san'atni rivojlantirishni ta'minlaydigan ijtimoiy kafolatlarning ta'sirchan tizimini vujudga keltirish;

- respublika tashqi iqtisodiy faoliyati mexanizmini sifat jihatdan o'zgartirish, shu jumladan, eksport, import operatsiyalari sohasidagi huquqlar va imkoniyatlarni kengaytirish;

- xorijiy sarmoyalar O'zbekiston SSR iqtisodiyotiga investitsiya kiritishi, chet el sayyohligini rivojlantirish va hokazo;

- respublika va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv idoralarining vakolatlari va mas'uliyatini ajratib qo'yish, xalq deputatlari mahalliy sovetlarining to'la hokimiyati tashkiliy-huquqiy va moliyaviy-iqtisodiy kafolatlarini ta'minlash;

- respublikadagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishda qatnashuvchi demokratik jamoat muassasalari iste'molchilar jamiyatlari, ishlab chiqaruvchilar uyushmalari, ekologiya va fan-texnika jamiyatlari, xayriya jamg'armalari va shu kabilarni vujudga keltirishga ko'maklashish nazarda tutildi.

Umuman, O'zbekiston rahbariyati SSSR Hukumatiga O'zbekistonning shoshilinch bozor iqtisodiyotiga o'tish to'g'risidagi ko'rsatmasiga e'tiroz bildirib, bu respublika sharoiti uchun birdaniga to'g'ri kelmasligini va bozor iqtisodiyotiga avvalo aholini, birinchi navbatda, uning kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy kafolatlab, so'ng o'tish borasida O'zbekiston o'zi mustaqil harakat qilishini ma'lum qildi.

3. O'zbekiston SSRning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish.

1990-yil 29-avgustida O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi «Ittifoqning yangi shartnomasi va boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish programmasining asosiy qoidalari va yo'l-yo'riqlariga nisbatan respublikaning tutgan o'rni to'g'risida»gi masalani ko'rib chiqib, bu borada shoshilmaslik joizligini yana bir bor ta'kidladi. Oliy Sovet Prezidiumi Ittifoqning yangi shartnomasini tuzish hamda boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturi bo'yicha tayyorlangan takliflar birinchi turkumini chuqur o'rganib chiqish va muhokama qilish uchun O'zbekiston Oliy Soveti, Kompartiya Markaziy Qo'mitasi, O'zbekiston SSR Fanlar

akademiyasi va boshqa tashkilotlarga yubordi.

Ko‘rinib turibdiki, yangi Ittifoq Shartnomasi loyihasi avvalgi yillardagidek darhol O‘zbekiston tomonidan quvvatlanmadi, bu yerda birinchi navbatda O‘zbekistonning milliy manfaatlari himoya qilinishi nazarda tutildi. Yangi Ittifoq Shartnomasini: «U O‘zbekistonning siyosiy suverenitetiga zarar yetkazmaydimi?» – degan nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda imzolash ko‘zda tutildi.

Shunga muvofiq respublika hukumati iqtisodiy Mustaqillikni bosqichma-bosqich amalga oshirishni nazarda tutadigan muayyan dastur ham ishlab chiqdi. Jumladan, uning **birinchi bosqichi** 1990 – 1992 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda esa 1990-yil alohida o‘rin tutadi. Chunki ayni ana shu yilda tang ahvolni bartaraf etishning negizlari bunyod etilishi kerak edi.

Shu uch yil mobaynida yangi xo‘jalik mexanizmining barcha asosiy unsurlari uzil-kesil harakatga kelishi, davlat budjeti kamomadiga, aholining pul daromadlari hamda uni tovar bilan ta‘minlash o‘rtasidagi nomutanosiblikka barham berilishi, pulning qadrsizlanishi kuchayib borishini to‘xtatish, mazkur bosqichda xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida mulk munosabatlarini tubdan o‘zgartirish, zarar ko‘rib ishlaydigan korxonalar zimmasiga o‘z ishini o‘nglab olishi vazifasini yuklash ko‘zda tutildi.

Ikkinchi bosqich 1993 – 1995-yillarni o‘z ichiga olishi mo‘ljallandi. Bu davrga kelib iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish tadbirlari amalga oshirilishi, ichki iste‘mol bozoridagi, pul muomalasi va budjetdagi kamomadlarga asosan barham berilishi, yangi iqtisodiy qonunlar joriy etilishi, ya‘ni bozor munosabatlarini me‘yoriy rivojlantirish uchun amalda zarur iqtisodiy sharoitlar yaratilishi, bu davrda davlat ixtiyorida bo‘lmagan sektorning hissasi oshishi ko‘zda tutildi.

VI. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT: O'ZBEKISTONDA PREZIDENT INSTITUTINING JORIY ETILISHI (2 soat)

O'zbekiston rahbariyati va xalqining O'zbekistonning mustaqillik sari dadil qadam qo'yayotganligini 1991-yil 17-martidagi umumxalq referendumini yakunlarida ham yaqqol ko'rish mumkin. 1991- yil 20-fevralda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosatining yig'ilishi bo'lib, unda SSSR Oliy Kengashi tomonidan belgilangan referendumda ovoz berishga mo'ljallangan asosiy byulleten bilan birga «O'zbekiston yangilanayotgan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida mustaqil, teng huquqli respublika bo'lib qolishiga rozimisiz?» degan savol qo'yilgan qo'shimcha byulleten kiritishga qaror qilindi. Byulletendagi ushbu matn o'zgartirilishi mumkin emas, deb belgilandi.

Oliy Kengash Rayosati viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklariga bo'lajak referendumda O'zbekistonning mustaqil bo'lishiga munosabat bildiruvchi ushbu byulleten matni yuzasidan mehnatkashlar ommasi o'rtasida tushuntirish olib borishni topshirdi. Bu ishlarga huquqshunoslar, mutaxassislar, ziyolilar vakillarini keng jalb qilish tavsiya qilindi.

Referendum yakuni shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning mustaqil, teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida bo'lishiga doir qo'shimcha byulleten bo'yicha 9 million 215 ming 571 nafar kishi yoki ovoz beruvchilarning – 93,9 foizi ovoz berdi.

Shunday qilib, bu referendumda O'zbekiston xalqining mutlaq ko'pchiligida O'zbekistonni mustaqil respublika sifatida ko'rish xohishi borligining o'ziyoq respublika rahbariyatining bu boradagi dadil kuch-g'ayratini qo'llab-quvvatlash ifodasi edi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlari tayyorlash va qabul qilish ishlari ham dadil boshlab

yuborildi.

1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi «O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida» maxsus qaror qabul qildi. Unda, jumladan, shunday deyiladi:

«Mustaqillik to'g'risidagi Deklaratsiyaga amal qilib, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi qaror qiladi:

1. O'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengash II sessiyasida tuzilgan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ning yangi loyihasini tayyorlovchi komissiyasiga O'zbekiston SSRning Yangi Davlat bayrog'i, Gerbi va Madhiyasiga doir takliflar hamda ular to'g'risida Nizomlar tayyorlash topshirilsin. Komissiya respublika jamoatchiligi va deputatlarining fikrlariga tayanib ish ko'rsin.

2. Bu boradagi takliflar matbuotda e'lon qilinib, umumxalq muhokamasi uyushtirilsin».

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qabul qilgan Qonunlar, O'zbekiston Prezidentining Farmonlari, hukumat qarorlari katta ahamiyatga ega bo'lib, ular respublikaning iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil rivojlanish yo'liga bevosita qaratila boshladi.

O'zbekistonning o'z suvereniteti uchun kurashi, avvalo, jumhuriyatda qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatidan sobiq Ittifoq qonunlaridan tubdan farq qilishida, bundan tashqari, har bir qonun avvalgidek Ittifoq qonuniga nechog'li moslashtirilganiga qarab emas, balki respublika manfaati qay darajada ifoda etilganligiga jiddiy e'tibor berildi.

Masalan, 1989-yil 20-oktabrida o'n birinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining o'n birinchi sessiyasida «O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish» to'g'risidagi masala maxsus muhokama etildi. Sessiyada shu masala yuzasidan respublika Oliy Soveti Raisi doklad qildi. Ma'ruzada O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonun davlat mexanizmining hamma bo'g'inlari Oliy Sovetga bo'ysunishini nazarda tutishi alohida ta'kidlandi. Respublika Oliy Sovetiga eng oliy nazorat qiluvchi idora sifatida O'zbekiston SSRning yuqori mansabdor shaxslarini, shu jumladan, Oliy Sovet Raisini saylash,

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Raisini, hukumat a'zolari va boshqa rahbar lavozimdagi kishilarni tasdiqlash yoki tayinlash va zarur bo'lganda ularni muddatidan oldin lavozimidan chaqirib olish huquqi berildi. Hukumatning bir yilda kamida bir marta Oliy Sovet oldida hisobot berishi majburiy qilib qo'yildi. Shuningdek, Oliy Sovet budjetni nazorat qilish, ministrlar va idoralar ishini tekshirish, deputatlar so'rovini muhokama qilish masalalarini ham ko'rib chiqadigan bo'ldi.

Konstitutsiyaga kiritilgan bu o'zgartirishlar respublika davlat hokimiyatining oliy idorasiga mustaqil davlat oliy idorasiga xos zarur vakolatlarni berdi. Ayni chog'da bu vakolatlarning uning ijtimoiy adolat tamoyillari buzilgan hamma joyda zudlik bilan uni tiklashi, jamiyat turmushida yuz berishi mumkin bo'lgan noxush hodisalarning oldini olish imkoniyatini ham berdi.

Qonun yana shunisi bilan ahamiyatli ediki, O'zbekiston SSR Oliy Sovetini respublikaning Sovet Federatsiyasida erkin, har tomonlama rivojlanishi uchun kafolat beradigan vakolatlarning bilan ham ta'minladi. Ilgari bu vakolatlarning ko'pchiligi faqat ittifoq idoralarining huquqi hisoblanar edi. Masalan, 102-moddada ko'zda tutilgan «mulkchilik munosabatlarini, xalq xo'jaligini va sotsial-madaniy qurilishni, budjet-moliya sistemasini, mehnatga haq to'lashni, narx belgilashni, soliq, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni, shuningdek, bir qancha boshqa ijtimoiy munosabatlarni qonun yo'li bilan respublikada tartibga solish» shular jumlasidandir.

Shuning uchun ham Konstitutsiyaga kiritilgan bu qo'shimchalar deputatlar tomonidan yakdillik bilan kutib olindi. Jumladan, sessiyada so'z olgan Farg'ona viloyatidagi «Rishton» sovxozining brigada boshlig'i, deputat Saodatxon Yoqubova «Ushbu sessiyada muhokama qilinayotgan masala g'oyat muhim bo'lib, davlatni boshqarishda oshkoralik, demokratiya, inson manfaatlarini to'la himoya qilish, davlatning fuqaro oldidagi, fuqaroning davlat oldidagi huquqiy javobgarliklarini ta'minlashga olib keladi», – deb barcha sessiya qatnashchilari fikrini ifodaladi. Shu boisdan sessiyada O'zbekiston Konstitutsiyasi (Asosiy Qonun)ga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» qabul qilingan

Qonunning 101-moddasida «O‘zbekiston SSR Davlat hokimiyatining oliy organi doimiy ishlaydigan O‘zbekiston SSR Oliy Soveti bo‘lib, u o‘z faoliyatiga qonun chiqarish, farmoyish berish va nazorat qilish vazifalarini amalga oshiradi.

O‘zbekiston SSR Oliy Soveti «O‘zbekiston SSR ixtiyoriga berib qo‘yilgan har qanday masalani qarab chiqish uchun qabul qilish va hal etishga haqlidir», ayni chog‘da u milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlar qabul qiladi, – deb alohida ta’kidlab qo‘yildi.

Aytish kerakki, respublika rahbariyatining O‘zbekistonning siyosiy suverenitetini ta’minlashga qaratilgan qat’iy pozitsiyasi I.A.Karimov tomonidan bir necha marta ko‘ndalang qilib qo‘yildi. Jumladan, u KPSS Markaziy Komitetining 1989-yil 20-sentabrida Moskvada bo‘lib o‘tgan Plenumida dadil tarzda: **«Biz ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o‘zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo‘yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz»**, – deb ta’kidladi. Oradan biroz o‘tgandan so‘ng – O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1990-yil 23-martidagi Plenumida u O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqillikka erishishning asosiy yo‘llarini ko‘rsatib: **«Siyosiy sistemani yangilash masalalarini O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi muammolaridan ajralgan holda qarash mumkin emas. Bizda bunday mustaqillik uchun shart-sharoit bor»**, – degan fikrni bildiradi.

Darhaqiqat, 1980-yillarning oxirlaridan boshlab respublikada iqtisodiy va siyosiy suverenitet uchun qadam-baqadam chora-tadbirlar ko‘rildi. Masalan, O‘zbekiston SSR Oliy Soveti 1989-yil 25-noyabrida bo‘lgan «O‘zbekiston SSRni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1990-yilgi Davlat plani to‘g‘risida»gi masalani muhokama qilar ekan, respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga oid muhim tadbirlarni belgiladi. «1990-yilga mo‘ljallangan plan, – deb ta’kidlanadi sessiyada, – respublikaning o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta’minlash prinsiplariga o‘tish arafasida uning iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish talablarini hisobga olgan holda tuzilgan edi... Eng asosiysi respublikaning sharoiti, o‘ziga xos xususiyati, an’anaviy marosimlari va manbalaridan kelib chiqqan holda territorial xo‘jalik hisobining o‘z konsepsiyasini ishlab chiqishdir».

Sessiya 1990-yil plani budjet loyihalarida hukumatning o'zlashtirilgan kapital mablag'lari sotsial ehtiyojlarga sarf qilinishini qonunan to'g'ri va asosli deb hisobladi hamda «respublikaning suvereniteti ayni shunda yaqqol ko'rinadi», – deb ta'kidladi.

Sessiyada respublikaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan quyidagicha qaror qabul qilindi:

«1990-yilda sovet va xo'jalik organlari, ilmiy muassasalar ishining muhim yo'nalishi respublikani o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash prinsipiga o'tishga tayyorlash yuzasidan amaliy tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat, deb hisoblansin.

O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti bu ish jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishning real resurslarini hamda amal qilish imkoniyatlari – strukturani tubdan takomillashtirish va uning ilmiy-texnikaviy hamda tashkiliy darajasini oshirish imkoniyatlarini har tomonlama qarab chiqsin... amalga oshirilayotgan siyosiy sistema islohotini, ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirishni hisobga olgan holda respublikaning iqtisodiy suverenitetini kengaytirishning asosiy yo'llarini belgilasin».

1990-yil 23-martida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumi bo'ldi. Unda O'zbekiston SSRning siyosiy suvereniteti masalalariga oid muammolarni tahlil etishga va konsepsiyalarini ishlab chiqishga jiddiy e'tibor berildi. Plenum yangilanayotgan siyosiy tizimda respublika Kompartiyasining o'рни va mavqei, uning davlat hokimiyati idoralari va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro munosabati prinsiplari to'g'risidagi masalalarini muhokama qilib, buyruqbozlikdan, ma'muriyatchilikdan voz kechish lozimligini uqtirdi. Shu bilan birga Plenum respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni hayot taqozo qilayotganligini ko'rsatib, real hokimiyat O'zbekiston Kompartiyasidan, uning barcha darajalaridagi komitetlaridan xalq deputatlari Sovetlariga berilishi bilan bog'liq barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishlari lozimligini ta'kidlab, yuzaga kelgan vaziyatda O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish muhim ahamiyat kasb etadi», – deb ta'kidladi.

O'zbekistonda **Prezidentlik boshqaruvi masalasining ko'tarilishi** shunchaki SSR Ittifoqi yangi tartibiga taqlid qilish emas, balki **prinsipial amaliy va tarixiy hodisa** bo'ldi. Respublikada boshqaruvning ayni ana shunday shakli joriy etilishi, avvalo, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa sohalardagi muammolarni hal qilish jarayonini tezlashtirishga ko'maklashish vositasi sifatida joriy qilindi. Eng muhimi shundan iboratki, Prezident muassasasining joriy etilishi – respublika uchun suverenitet va davlatchilikda mohiyat jihatidan yangi bosqichga o'tishni bildirar edi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayni shu paytda keng miqyosda tartib va intizomni, eng avvalo, boshqaruvning barcha darajalarida va jabhalarida ijro mexanizmini qayta qurishni tezlashtirish vazifalarini o'z vaqtida hal etish masalasi, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi barcha davlat muassasalarini nazorat qilish ham katta ahamiyat kasb etmoqda edi.

Ana shu obyektiv holatni hisobga olib, 1990-yil 24-martida XII chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi bo'ldi. Sessiya O'zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qildi. Sessiya yakdillik bilan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Prezidenti etib saylash to'g'risida qaror qabul qildi. Bu yerda shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda Prezident lavozimining ta'sis etilishi respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo'yilgan dadil qadamlardan dastlabkisi edi.

Chunki uzoq yillar mobaynida yig'ilib qolgan milliy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy rivojlanish muammolari bu vaqtga kelib nihoyatda keskin tus olgan edi. Hayot respublikaning kelajagi, xalq taqdiri va turmushining, O'zbekiston fuqarolari kelajak avlodlari hayotining to'kisligi, tinchlik, osoyishtalik muammolarini izchil hal etishni ko'rsata boshladi. O'zbekiston oldidagi mana shu dolzarb muammolarni hal etishda Prezident lavozimi keng imkoniyat ochar edi.

Respublikaning birinchi Prezidenti I.A.Karimov sessiyada **«Bu katta ishonch uchun o'zimning minnatdorchiligimni bildiraman, men buni, eng avvalo, o'zbek xalqi, O'zbekiston SSRning barcha mehnatkashlari, ishchilar sinfi,**

dehqonlar, ziyolilar, jumhuriyatimizda yashovchi hamma millat va xalqlar taqdiri uchun o'z zimmamga tushgan ulkan burch va javobgarlik deb qabul qilaman. Har bir grajdanning konstitutsion huquqi va erkinliklarini ta'minlash yo'lida katta mas'uliyat deb tushunaman», – dedi.

O'z fikrini davom ettirib, I.A.Karimov Prezident vazifasiga to'xtalib: **«O'zbekiston Prezidenti sifatidagi o'zimning asosiy vazifalarimni nimadan iborat deb bilaman? O'zbekiston SSRning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish, uni yangi va hayotiy mazmun bilan boyitish, shuningdek, «Prezident boshqaruvi»ning muhim vazifalaridan biri respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, o'zini o'zi idora qilishga o'tishini ta'minlashdir. Ayni chog'da mehnatkashlarning, aholining hamma tabaqalari farovonligini oshirish, odamlarning talab va ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani tez sur'atlar bilan rivojlantirish – respublika davlat hokimiyati organlaridan, shaxsan mendan, O'zbekiston SSR Prezidentidan doimiy e'tibor talab qiladigan vazifadir».** Shu tariqa Prezident eng qiyin, ziddiyatli, tahlikali bir paytda qonli to'qnashuvlarni boshdan kechirgan xalq oldida butun mas'uliyatni ochiq-oydin o'z zimmasiga oldi.

Shu bilan birga Prezident o'z faoliyatining markazida xalqni ma'naviy yuksaltirish, insonni axloqiy va jismoniy takomilga erishtirish turganligini ham alohida uqtirdi.

Gap O'zbekiston mustaqilligi haqida borganda, shubhasiz, O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ning o'rni va ahamiyatiga alohida to'xtash lozim. Zero, bu muhim hujjat O'zbekistonning Mustaqillikka erishishida qo'yilgan navbatdagi muhim qadamlardan biri edi. Bu umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan Deklaratsiyani qabul qilishda respublika Oliy Soveti deputatlari faollik ko'rsatdilar. O'zbekistondagi tarixiy shart-sharoit va vaziyatni hisobga olgan 200 dan ortiq deputat XII chaqiriq respublika Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasi (1990-yil 18-iyunda) boshlanishidayoq Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilishni kun tartibiga kiritishni va kechiktirmasdan shu sessiyada uni qabul qilishni qat'iy talab

etdilar.

O'zbekiston SSR Oliy Soveti Rayosati a'zolari, komissiya raislari va muovinklari «Mustaqillik Deklaratsiyasi» xususida fikrlashib, deputatlar fikrini olish va so'ng uni sessiyaga olib chiqish lozim, deb topdilar. 19-iyun kuni 40 dan ortiq deputat, doimiy komissiyalarning raislari, huquqshunoslar tayyorlagan Deklaratsiya matnini batafsil ko'rib chiqdi. Natijada bu masala 20- iyun kuni sessiyada kun tartibiga kiritildi.

«Mustaqillik Deklaratsiyasi» deputatlar tomonidan moddama-modda, bandma-band muhokama qilindi, har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi qayta-qayta ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olinishi uqtirildi.

Natijada sessiyada qabul qilingan «Mustaqillik Deklaratsiyasi» kirish qismiga quyidagicha yozib qo'yildi:

«O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad haqi, O'zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi».

Shuningdek, birinchi moddada: «O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarni belgilashda va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir», – deb belgilab qo'yildi. Sessiya qabul qilgan bu «Mustaqillik Deklaratsiyasi» xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi.

Surxondaryo viloyati, Kuybishev saylov okrugidan saylangan deputat I.Fayzullayev o'z his-tuyg'ularini ifodalab: «Xalqimiz qarsak chalib, joyimizdan turib, butun vujudimiz bilan berilib, Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qildik. Butun O'zbekiston xalqi ko'rib turdi. 70 yil davomida O'zbekiston ishlab topgan

mahsulotlarini, bor xom- ashyosini o'zi yemay boshqa respublikalarga berib keldi. Endi mustaqillikni qo'lga kiritay deganda... orqaga qaytmaslik lozim».

Shu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi.

Bu borada ba'zi misollarni keltirish o'rinli. Jumladan, 1991-yil 22- yulida O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi «O'zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini «O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilib, jumladan, unda «O'zbekiston SSRning «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ga amal qilib, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mehnat jamoalari manfaatlarini himoya qilish va ularning xo'jalik mustaqilligini ta'minlash maqsadida respublika hududida joylashgan ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tadi», – deb qayd qilindi.

Shuningdek, ushbu qarorda «O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga Ittifoqqa bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning O'zbekiston SSR huquqiy tobeligiga o'tishi tartibini belgilash vazifasi topshirildi».

Yana bir misol: respublika Oliy Soveti Prezidiumi «Chakana narxlar amalga oshirilayotgan bir davrda mehnatni rag'batlantirishni kuchaytirish va mehnatkashlarning ijtimoiy himoyalanganligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston SSRning «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ga hamda «O'zbekiston SSRdagi korxonalar to'g'risida»gi qonunga muvofiq «1991-yilgi Ittifoq budjeti» to'g'risidagi SSSR Qonuni 8-moddasining «korxonalar iste'mol fondini ko'paytirishni cheklashga oid qismi amal qilishini O'zbekiston hududida to'xtatishi» to'g'risida ham qaror qabul qildi. Shunday qilib, 90-yillarning dastlabki davrlarida O'zbekiston SSR Prezidenti I.A.Karimov, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi va Hukumati O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi, uning milliy suvereniteti uchun dadil qadamlar qo'ydilar. Bu keng jamoatchilik tomonidan ham qoniqish bilan kutib olinib boshladi. Masalan, Toshkent siyosatshunoslik va boshqaruv instituti 1991-yili fevral oyida Toshkent,

Samarqand, Farg‘ona shaharlarida 10 ta sanoat korxonasida 400 ishchi bilan sotsiologik so‘rov o‘tkazdi. So‘ralganlarning 67,8 foizi mamlakatdagi iqtisodiy ahvol yaxshilanmaydi, deb, 72 foizdan ortig‘i esa hayotdan qoniqmayotganini aytdi. Ishchilarda sobiq markazning sotsial-siyosiy tartibotlariga ishonmaslik vujudga keldi. Masalan: «Umumittifoq va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlariga sizning munosabatingiz qanday?», – deb berilgan savolga 4,5 foiz kishi «O‘z umidimni umumittifoq davlat idoralari bilan bog‘layman», 32,5 foiz ishchi esa «Respublika davlat organlari bilan bog‘layman», – deb javob berdi. Ushbu javoblardan ham ko‘rinib turibdiki, fuqarolarda umumittifoq idoralariga emas, balki respublika davlat idoralariga, tabiiyki, respublikaning mustaqil rivojlanishiga ishonchi tobora orta boshladi. I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq oltinchi sessiyasida (1991-yil) jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarni ta’riflab shunday fikr bildirgan edi: «Mamlakatda bugun mavjud bo‘lgan keskin qarama-qarshilik vaziyati bir kunda paydo bo‘lgani yo‘q. Novo-Ogorevoda Ittifoq shartnomasi ustida ish olib borilayotgan bir paytda SSSR Oliy Kengashining rahbarlari pozitsiyasi ma’lum bo‘ldi.

Ular har xil siyosiy niqoblar ostida davlatni, markaziy boshqaruvni eski holicha saqlab qolishga, Ittifoq shartnomasini tayyorlash va imzolashda esa Ittifoq Oliy Kengashiga eng oliy, ya’ni hal qiluvchi huquqlar berilishiga harakat qildilar. Jumhuriyatlar o‘zlari xohlagan vakolatlarini Ittifoqqa emas, balki Ittifoq xohlagan vakolatlarini jumhuriyatlarga berar emish. Biz esa Ittifoqni faqat uning tarkibiga kiruvchi davlatlarning to‘liq mustaqilligi va teng huquqliligi bilan yangilash mumkin, degan fikrda qat’iy turdik. Asosiy kelishmovchilik ana shundan iborat edi».

Nazorat savollari:

1. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti qachon davlat rahbari etib tayinlangan?
2. 1990-yil 23-martda bo‘lgan plenuemda qanday masalalar ko‘rilgan?
3. O‘zbekistoning Mustaqillik Deklaratsiyasida qanday masalalar yozib qo‘yilgan?

4. 1990-yilda O'zbekistondagi iqtisodiy ahvol qanday darajada edi?
5. 1990-yil boshlariga kelib sanoat korxonalarining ahvoli qay darajada edi?

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қаҳрамон Ражабов. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Тошкент. Маънавият. 2002
2. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: Sharq. 2000.
3. Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
4. Sagdullayev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
5. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. 1-jild. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
6. Istoriya Uzbekistana. Tashkent: Fan, 2012.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-2-3-kitoblar. Toshkent: Sharq, 2000.
8. Sagdullaev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent, 2000.
9. Leonid Levitin. Uzbekistan on a historical Threshold. England: Cambridge, 2001.
10. Mingnorov A. Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy-siyosiy tashkilotlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
11. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy to'plam. №1. Toshkent: Universitet, 1999.
12. O'zbekiston tarixi. Toshkent, 2003.
13. Qahramon Rajabov. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
14. Dono Ziyoeva. Bosmachilik: haqiqat va uydirma. Toshkent: O'zbekiston, 2000.
15. Qahramon Rajabov. Mustaqil Turkiston fikri uchun mushohodalar. Toshkent: O'zbekiston, 2000.

IV. Internet saytlar

16. <http://natlib.uz>-Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
17. <http://yedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
18. <http://lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

19. <http://lib.bimm.uz>- Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
20. <http://ziyonet.uz>- Ta'lim portali Ziyonet
21. <https://tarixinstituti.uz/uzb/Bo'limlar>
22. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti
23. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.

2-AMALIY MASHG'ULOT: MUSTAQILLIK ENG AVVALO XALQ BIRLIGI VA HAMJIHATLIGIDIR (2 soat)

REJA:

1. 1991-yil fevral voqelari
2. Mustaqillik buyuk ne'mat
3. O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligini e'lon qilinishi.

Tayanch iboralar: Mustaqillik Deklaratsiyasi, Oliy kengash, chakana narxlar, Mustaqillik, Ittifoq shartnomasi, suverenitet, I.A.Karimov, Favqulodda Holat Davlat Komiteti, O'zbekiston Respublikasi.

1. 1991-yil fevral voqelari.

«Mustaqillik Deklaratsiyasi» deputatlar tomonidan moddama-modda, bandma-band muhokama qilindi, har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi qayta-qayta ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olinishi uqtirildi.

Natijada sessiyada qabul qilingan «Mustaqillik Deklaratsiyasi» kirish qismiga quyidagicha yozib qo'yildi:

«O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad

haqi, O'zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi».

Shuningdek, birinchi moddada: «O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarni belgilashda va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir», – deb belgilab qo'yildi. Sessiya qabul qilgan bu «Mustaqillik Deklaratsiyasi» xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi.

Surxondaryo viloyati, Kuybishev saylov okrugidan saylangan deputat I.Fayzullayev o'z his-tuyg'ularini ifodalab: «Xalqimiz qarsak chalib, joyimizdan turib, butun vujudimiz bilan berilib, Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qildik. Butun O'zbekiston xalqi ko'rib turdi. 70 yil davomida O'zbekiston ishlab topgan mahsulotlarini, bor xom-ashyosini o'zi yemay boshqa respublikalarga berib keldi. Endi mustaqillikni qo'lga kiritay deganda... orqaga qaytmaslik lozim».

Shu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi.

Bu borada ba'zi misollarni keltirish o'rinli. Jumladan, 1991-yil 22- yulida O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi «O'zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini «O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilib, jumladan, unda «O'zbekiston SSRning «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ga amal qilib, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mehnat jamoalari manfaatlarini himoya qilish va ularning xo'jalik mustaqilligini ta'minlash maqsadida respublika hududida joylashgan ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tadi», – deb qayd qilindi.

Shuningdek, ushbu qarorda «O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga Ittifoqqa bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning O'zbekiston SSR huquqiy tobeligiga o'tishi tartibini belgilash vazifasi topshirildi».

Yana bir misol: respublika Oliy Soveti Prezidiumi «Chakana narxlar amalga oshirilayotgan bir davrda mehnatni rag‘batlantirishni kuchaytirish va mehnatkashlarning ijtimoiy himoyalanganligini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston SSRning «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ga hamda «O‘zbekiston SSRdagi korxonalar to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq «1991-yilgi Ittifoq budjeti» to‘g‘risidagi SSSR Qonuni 8-moddasining «korxonalar iste‘mol fondini ko‘paytirishni cheklashga oid qismi amal qilishini O‘zbekiston hududida to‘xtatishi» to‘g‘risida ham qaror qabul qildi. Shunday qilib, 90-yillarning dastlabki davrlarida O‘zbekiston SSR Prezidenti I.A.Karimov, O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi va Hukumati O‘zbekistonning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi, uning milliy suvereniteti uchun dadil qadamlar qo‘ydilar. Bu keng jamoatchilik tomonidan ham qoniqish bilan kutib olinib boshladi. Masalan, Toshkent siyosatshunoslik va boshqaruv instituti 1991-yili fevral oyida Toshkent, Samarqand, Farg‘ona shaharlarida 10 ta sanoat korxonasida 400 ishchi bilan sotsiologik so‘rov o‘tkazdi. So‘ralganlarning 67,8 foizi mamlakatdagi iqtisodiy ahvol yaxshilanmaydi, deb, 72 foizdan ortig‘i esa hayotdan qoniqmayotganini aytdi. Ishchilarda sobiq markazning sotsial-siyosiy tartibotlariga ishonmaslik vujudga keldi. Masalan: «Umumittifoq va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlariga sizning munosabatingiz qanday?», – deb berilgan savolga 4,5 foiz kishi «O‘z umidimni umumittifoq davlat idoralari bilan bog‘layman», 32,5 foiz ishchi esa «Respublika davlat organlari bilan bog‘layman», – deb javob berdi. Ushbu javoblardan ham ko‘rinib turibdiki, fuqarolarda umumittifoq idoralariga emas, balki respublika davlat idoralariga, tabiiyki, respublikaning mustaqil rivojlanishiga ishonchi tobora orta boshladi. I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq oltinchi sessiyasida (1991-yil) jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarni ta‘riflab shunday fikr bildirgan edi: **«Mamlakatda bugun mavjud bo‘lgan keskin qarama-qarshilik vaziyati bir kunda paydo bo‘lgani yo‘q. Novo-Ogorevoda Ittifoq shartnomasi ustida ish olib borilayotgan bir paytda SSSR Oliy Kengashining rahbarlari pozitsiyasi ma‘lum bo‘ldi.**

Ular har xil siyosiy niqoblar ostida davlatni, markaziy boshqaruvni eski holicha saqlab qolishga, Ittifoq shartnomasini tayyorlash va imzolashda esa Ittifoq Oliy Kengashiga eng oliy, ya'ni hal qiluvchi huquqlar berilishiga harakat qildilar. Jumhuriyatlari o'zlari xohlagan vakolatlarini Ittifoqqa emas, balki Ittifoq xohlagan vakolatlarini jumhuriyatlarga berar emish. Biz esa Ittifoqni faqat uning tarkibiga kiruvchi davlatlarning to'liq mustaqilligi va teng huquqliligi bilan yangilash mumkin, degan fikrda qat'iy turdik. Asosiy kelishmovchilik ana shundan iborat edi».

Sobiq Markazni kuchaytirish, hokimiyatni yana markazda to'plash tarafdorlari o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun ommaviy axborot vositalari va sessiya minbarlaridan keng foydalandilar. Masalan, akademik V.Kudryavsev «Pravda» gazetasida «Suverenitet haqida Deklaratsiyalar va Ittifoq Shartnomasi» deb nomlangan maqola bilan chiqib, Ittifoqni respublikalar suverenitetini toraytirish hisobiga yangi Ittifoq Shartnomasi tuzish g'oyasini ilgari suradi. Jumladan, uning fikricha: «Markaz ixtiyorida mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishni belgilash, moliya, bank, bojxona tizimini nazorat qilish huquqlari qolishi kerak. Umumittifoq qonunlari respublikalar qonunlaridan ustun turmog'i lozim». Bunday qarashlar I.A.Karimov boshchiligida O'zbekistonda vujudga kelayotgan siyosiy tamoyillarga mos kelmas edi. O'zbekistonning yetakchi olimlari V.Kudryavsevning milliy respublikalar suverenitetini cheklash g'oyasiga qarama-qarshi mamlakatda milliy masalani hal qilishning uch oqilona yo'li, ya'ni demokratiyalashtirish, desentralizatsiya, deideologizatsiyani amalga oshirishni taklif qildilar.

Biroq, markazni kuchaytirish tarafdorlari boshqa usullardan: namoyishlar o'tkazish, mitinglar tashkil qilish, hatto, g'ayri konstitutsion yo'llar bilan davlat to'ntarishi qilish bilan bo'lsa-da, barcha huquqni Markazda to'plash, avvalgi buyruqbozlik usulini qaror toptirishga harakat qilaverdilar.

2. Mustaqillik buyuk ne'mat.

1991-yil 19-21 avgustida Moskvada davlat to'ntarishi qilishga urinib ko'rildi. Ularning maqsadlari Ittifoq hududida yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikni

qo'lg'a kiritishlariga, o'z taqdirlarini o'zlari hal qilishlariga yo'l qo'ymaslik edi.

Shuni ham aytish kerakki, to'ntarishni uyushtirgan kishilar mamlakatda yuz bergan boshboshdoqlik va parokandalik cho'qqisiga chiqqan bir paytdan foydalanib qolmoqchi bo'lishdi. Ammo qayta qurish yillarida ko'zi ochilgan xalqni endi eski tuzum doirasiga kiritishga, unga eskicha buyruqbozlik qilishga urinish behuda edi. Butun mamlakat uchun fojiali bo'lgan o'sha kunlarda O'zbekiston rahbariyati korxona va xo'jaliklarning rahbarlari xalq saylagan deputatlar, barcha sofdil kishilar, xalqni sabr-toqat va osoyishtalikka da'vat qildilar. Ular barqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyatni saqlash, jumhuriyat hududida favqulodda holat joriy etilishiga yo'l qo'ymaslik, Konstitutsiyaga qarshi davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatlash yo'lidagi ig'vogarona harakatlarga uchmaslik uchun o'zlarining butun imkoniyatlaridan foydalandilar.

Faollar bilan uchrashuvlarda, O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risidagi Deklaratsiya va konstitutsion tuzum qoidalariga rioya qilinajagi aytili. Xalqqa markazdan har qanday ko'rsatmalar, turli va'dalar berilishi, dag'dag'alar qilinishiga qaramay, respublika o'z siyosiy yo'lidan qaytmasligi aytili.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Hindiston safaridan qaytgani hamonoq – 19-avgust kuni kechqurun respublika rahbarlari va Toshkent shahri faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda O'zbekiston nuqtayi nazarini ma'lum qildi. Respublika rahbariyati: **«Markazdan, kim bo'lishidan qat'i nazar, qonunga xilof ko'rsatmalarni bajarish mumkin emas»**, – deb hisobladi. 20-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati, O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlis bo'ldi. Unda O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi.

Shu kuni O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov respublika aholisiga murojaat bilan chiqdi. Ushbu murojaatda O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish yo'li qat'iy ekanligini yana bir bor alohida uqtirildi. Jumladan, unda **«O'zbekiston jumhuriyati, uning rahbariyati qayta qurish davrida ham hech qachon**

birovning gapiga kirib ish tutgan emas. Markazdan, boshqa ba'zi bir jumhuriyatlardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytganimiz yo'q. Bu yo'l bizning xalqimiz tarixiga, urf-odatlariga, tabiatimiz shart-sharoitlariga, xullas, xalqimiz manfaatlariga mos yo'ldir», – deb qat'iy ta'kidlandi. Shuningdek, turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar o'rtasidagi ixtiloflarni hal etish uchun kuch ishlatish, eng avvalo, harbiy kuch ishlatish ochiq-oydin qoralandi.

O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan Favqulodda Holat Davlat Komitetining g'ayri konstitutsiyaviy, huquqqa qarshi qarorlari va boshqa ko'rsatmalari noqonuniy deb e'lon qilindi.

Ana shunday sharoitda, ya'ni markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir mintaqa, har bir respublika o'z holiga tashlab qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston mustaqilligi haqida Qonun qabul qilish masalasini keskin qo'ydi. Chunki har bir milliy respublikaning chinakam teng huquqliligi va mustaqilligi ta'minlangandagina tanazzuldan chiqish mumkin edi. Buning uchun mustaqillik yo'lidagi barcha to'siqlar olib tashlanishi, har bir respublika so'zda emas, balki amalda tenglar orasida teng bo'lishi lozim edi.

Ayni shu maqsadlarni ko'zlab, O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991-yil 31-avgustda o'z ishini boshladi.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash lozim. Unda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi hamda «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Prezident I.A.Karimov ma'ruzasi tinglandi. U o'z nutqida 1991-yil o'rtalarida markaziy

hukumat olib borayotgan ichki siyosatni tahlil qildi. 19-21-avgust kunlari Moskvada Favqulodda Holat Davlat Komiteti a'zolarining fuqarolar boshiga azob-uqubatlar solishga intilishganini, butun-butun xalqlarning ozodligini, respublikalar mustaqilligini yana kishanlamoqchi bo'lganliklarini ro'yirost ochib tashladi. Alg'ov-dalg'ovli kunlarda ham O'zbekistonning o'z yo'li va maqsadi borligini, bu xalq manfaatiga mos yo'l ekanligini, qanday qilib bo'lmasin, undan qaytmaslik lozimligini aytdi. Shuningdek, ma'ruzada mustaqil davlatlar maqomiga to'xtalib: **«Bo'lajak Mustaqil davlatlar... erkin, mustaqil va teng huquqli bo'lib qolishlari, o'zlarining milliy davlat tuzish, tashqi bozorga chiqish, o'zi ma'qul topgan barcha mamlakatlar bilan xalqaro munosabat o'rnatish, diplomatik va konsullik aloqalari masalalarini mustaqil hal etishlari kerak. Yana ta'kidlab aytaman, bu hech kimning buyrug'isiz va aralashuvisiz mustaqil amalga oshirilishi kerak. Mana shu sharoitga, sabablarga asoslanib, xalqimiz xohish-irodasini bajo keltirib, Oliy Kengash diqqatiga faqat bir masalani qo'ymoqchiman: O'zbekistonning mustaqilligi haqidagi Qonunni muhokama etish va uni qabul qilishni taklif etaman. Bu qonunda qadimiy va yangilanayotgan diyorumizda istiqomat qilayotgan barcha kishilarning xohish-irodasi o'z ifodasini topgan. Xalqimizning bu ezgu xohish-irodasi biz uchun muqaddasdir»**, – degan fikr bildirildi.

Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so'ng «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risida»gi qonunni qabul qildilar. So'ngra Respublika Davlat Mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot qabul qilindi. O'zbekiston SSRning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. Mustaqillik e'lon qilingan kun 1-sentabr 1991-yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni, deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.

3. O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligini e'lon qilinishi.
«O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lganligi uchun bu muhim hujjat haqida batafsil

to'xtash lozim. Mazkur qonun asosida O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi. O'z mohiyatiga ko'ra bu hujjat respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini ham o'ynaydigan bo'ldi. 17 moddadan iborat bu qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi.

1-moddada O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil demokratik davlat, deb e'lon qilinadi.

2-moddada O'zbekiston Respublikasining xalqi suveren ekanligi va u respublika davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi ekanligi haqida gapiriladi.

3-moddada O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi.

5-moddada O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya, uning qonunlari ustun ekanligi va davlat idoralarining tizimi, hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida ko'rilganligi haqida gapirildi.

8 – 12 – 14-moddalar O'zbekiston mustaqilligining iqtisodiy asoslarini izohlab berdi.

13-14-moddalarda O'zbekistonning tashqi siyosiy aloqalaridagi mustaqilligi sharhlandi.

15-moddada O'zbekiston Respublikasi hududida inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq holda respublika fuqaroligi joriy etilishi, u fuqarolar millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi, qaysi dinga mansubligidan qat'i nazar, bir xil huquqlarga egaligi va ular respublika Konstitutsiyasi va qonunlari himoyasida bo'lishlari qonunlashtirilgan.

16-moddada davlat ramzi bo'lgan gerb, bayroq va madhiya hamda davlat tili haqida gapirilsa, 17-moddada esa O'zbekistonning Qoraqalpog'iston bilan munosabatlari xususida so'z borib, O'zbekiston Qoraqalpog'istonning hududiy yaxlitligini tan olishi haqida fikr yuritiladi, u O'zbekiston tarkibida ekanligi e'tirof etiladi (bu moddada O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'zaro munosabatlari ikki tomonlama tenglik asosida tarkib topishi kerakligi qonunlashtirilgan). Shuningdek, bu moddada Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan

tegishli qonunlar asosida chiqib ketishi mumkinligi ham e'tirof etilgan.

Bunday Qonunning qabul qilinishi mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarning natijasi hisoblanadi. Bu esa huquqiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-axloqiy munosabatlar natijasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham, ushbu Qonunga O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1991-yil 30-sentabr qarori bilan Konstitutsiyaviy maqom berildi. Jumladan, unda shunday deyiladi:

1. «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida» 1991-yil, 31-avgustida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Qonuniga konstitutsiyaviy maqom berilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi amaldagi Konstitutsiya moddolari «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunning qoidalariga zid kelgan hollarda mazkur Qonunga amal qilinsin.

3. Konstitutsiya komissiyasi tayyorlanayotgan «Respublika Konstitutsiyasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunning qoidalariga amal qilinsin.

Shu tariqa qonun tarzida huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan O'zbekiston mustaqilligi barchaning dilini quvonchlarga to'ldirdi. Toshkentdagi Podyomnik ishlab chiqarish birlashmasining ishchisi, 21-saylov okrugidan O'zbekiston xalq deputati Botir Qosimov sessiya yakunida so'zga chiqib, shunday dedi:

«Yashirmayman, mustaqillik haqida gap-so'z ko'p edi-ku, lekin ishning amaliy qismiga kelganda siljish yo'q edi. Nihoyat respublikamiz Oliy davlat hokimiyati juda muhim qonun, davlat mustaqilligi to'g'risidagi hujjatni qabul qildi. Endi mana shu har birimizga quvonch va iftixor tuyg'ularini olib kelgan qarorni amalda quvvatlashimiz zarur».

Shu tariqa xalqimizning uzoq yillar kurashib, intilib qo'lga kiritgan mustaqillik erki qonun bilan mustahkamlab qo'yildi.

Nazorat savollari:

1. 1991-yil fevral voqelari haqida nimalarni bilasiz?.

2. 1991-yil 19-21-avgust voqealari haqida nimalarni bilasiz?
3. O‘zbekiston Respublikasining Mustaqilligi qachon e‘lon qilingan?
4. Yurtimizda mustaqillik kuni qaysi sanada nishonlanadi?

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Қаҳрамон Ражабов. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Тошкент. Маънавият. 2002
2. Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: Sharq. 2000.
3. Sagdullayev va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
4. Sagdullayev A.S., Mavlonov O‘. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
5. Eshov B.J., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. 1-jild. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
6. Istoriya Uzbekistana. Tashkent: Fan, 2012.
7. O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-2-3-kitoblar. Toshkent: Sharq, 2000.
8. Sagdullaev va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent, 2000.
9. Leonid Levitin. Uzbekistan on a historical Threshold. England: Cambridge, 2001.
10. Mingnorov A. Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy-siyosiy tashkilotlar. Toshkent: Ma‘naviyat, 2002.
11. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy to‘plam. №1. Toshkent: Universitet, 1999.
12. O‘zbekiston tarixi. Toshkent, 2003.
13. Qahramon Rajabov. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. Toshkent: Ma‘naviyat, 2002.
14. Dono Ziyoeva. Bosmachilik: haqiqat va uydirma. Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
15. Qahramon Rajabov. Mustaqil Turkiston fikri uchun mushohodalar. Toshkent: O‘zbekiston, 2000.

IV. Internet saytlar

16. <http://natlib.uz>-Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
17. <http://yedu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
18. <http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi
19. <http://lib.bimm.uz>- Oliy ta‘lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

20. <http://ziyonet.uz>- Ta'lim portali Ziyonet
21. <https://tarixinstituti.uz/uzb>/Bo'limlar
22. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti
23. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.

V. GLOSSARIY

Aholini ijtimoiy himoyalash – aholini bozor iqtisodiyotining salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlardan asrash, shu oqibatlarning aholi ijtimoiy iqtisodiy ahvoriga ta'sirini yumshatish.

Baynalminalchilik – (internatsionalizm, arabcha “baynalminal” – millatlararo) jahondagi barcha millat va elatlarning tengligi, hamjihatligi nazariyasi va amaliyoti. Insoniyat tarixi turli millatlari va elatlari orasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy aloqalar o'rnatilib, ularning tobora mustahkamlanib borishi jarayonidir. Bunday munosabatlarsiz ijtimoiy taraqqiyot amalga oymaydi. Baynalminalchilik millatchilik va milliy bikiklikning hato va kamchiliklarini ochib tashlash jarayonida vujudga keladi. Baynalminalchilik umuminsoniy voqea bo'lib, davlatlar o'rtasidagi chegaralar va turli to'siqlar barchaga putr yetkazmasligi kerakligini tasniflaydi.

Bozor iqtisodiyoti – jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyoti mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali doimiy ishtirokchilariga aylantiradi. Shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilashib borishiga, miqdorning esa ko'payishiga sababchi bo'ladi.

Byudjet – davlat, viloyat, shahar, tuman, muassasa, tashkilot va boshqalarning ma'lum muddatdagi daromad va harajatlarining pul hisobi.

Biznes – (inglizcha–business) – tadbirkorlik, tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish. Biznes – tovar ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa sohalardagi faoliyatdir.

Banklar – kredit-moliya muassasasi, ularning eng asosiy vazifasi – vaqtincha bo'sh pul mablag'larini bir joyga to'plash, korxonalarga va umuman pulga muhtojlarga kredit, ssuda berish, pul hisob-kitoblarini amalga oshirish, turli qimmatli qog'ozlar chiqarish, oltin va chet el valyutalari bilan bog'liq masalalarni amalga oshiruvchi muassasa.

Bojxona – davlat chegarasidan o'tadigan va o'tkaziladigan mol-mulklar hamda transport vositalarini nazorat qiluvchi, shuningdek, yuk egalaridan belgilangan tartibda (poshlina) va boshqa yig'imlarni undiruvchi davlat muassasasi. Bojxona davlatning iqtisodiy manfaatlarini muhofaza qiluvchi organlaridan biridir.

Valyuta – (ital. “Valuta”, lotin. “Voleze” – qadrlanmoq, qiymat) mamlakatning pul birligi va uning tipi (oltin, kumush, qog'oz) pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari; pul hisob-kitoblarini taqozo etadigan xalqaro iqtisodiy ayirboshlash va boshqa aloqalarda qatnashadi.

Vijdon erkinligi – bu fuqarolarning har qanday e'tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir.

Geosiyosat – (yunoncha “geo” – yer va “politike” – davlatni boshqarish san'ati.) – davlatlar tashqi siyosatini amalga oshirishga geografik omillar (davlat egallab turgan hududning qulayligi yoki noqulayligi, katta yoki kichik ekanligi, tuprog'ining serhosilligi, tog' va dashtu-cho'llarning ko'p-kamligi va h.k.)ga alohida urg'u berish geopolitika nazariyasiga binoan millatlarning va davlatning tabiati, geografik joylashganligiga bog'liq.

Geosiyosat globallashuvidan foydalanib XVII-XIX asrlarda mustamlakachi davlatlar o'z bosqinchilik siyosatini amalga oshirdilar. XV asrda fashistlar germaniyasi, Yaponiya va sho'ro isteabdod davlati geosiyosiy siyosatni amalga oshirdi. Hozirgi zamon geosiyosati jaxon va har bir davlat siyosatda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Lekin hozirgi zamon siyosati tinchlik, xamkorlik, yaratuvchanlik siyosatini amalga oshirishga qaratilgan, umujaxon demokratiyasi, xalqlar tengligi jamoatchilariga suyanadi.

Globallashuv – lotincha “glob” so'zidan olingan bo'lib, ayni uni “Dumaliklashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, yer kurrasining fan texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. Globallashuvning ijobiy tomoni shunlan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniya va iqtisodiyotining yaqinlanishini tuzlashtiradi, ularniing rivojlanigi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Uning salbiy tomoni shundan iboratki mayda, qoloq, etik guruhlar va mamlakatlarning madaniyati, tili urf-odati kuyaayib borayotgan globallashuv jarayonlarida qayta millatlar, yirik minglab madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlana olmay o'z-o'zidani ijtimoiy-iqtisodiy, insoniy-zaboniy hayotdan chetga chiqib keladi. Bunday sharoitda har bir ongli fuqaroning vazifasi – o'z millatining raqobatbardoshligini ko'rsatish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkorlik iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli salmoqli yutuqlari uchun kurashadi.

Global muammolar – ushbu muammolar o'zining dahshatli oqibatlari, jinoyatga keltiradigan zarari bilan boshqa har qanday muammolardan qisman farq qiladi. Bumuammolarni jamiyat hayotida ro'y beradigan birdan – bir muammoga qiyoslab bo'lmaydi. Ular o'zining ko'lami va miqyoslariga ko'ra dunyoning juda katta qismiga yoyilgan bo'lib, ko'pchilik mamlakatlar va xalqlar hayotiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Global muammolar mohiyatiga quyidagi turlarga bo'linadi: Ineknichniy yadro halokatidan saqlash; yalpi va umumiy umumiy tinchlikni ta'minlash; xalqaro terrorizm muammosi shu jumladan mintaqalardagi terroristik harakatlarga birgalikda kurash; giyohvandlikka qarshi birgalikda kurash; jamiyat muammosi; energetika muammosi; qashshoqlik muammosi; ocharchilikka

qarshi kurash; hayvonot va o'simliklar dunyosini saqlash; ekologiya; spid va h k.

Genotsid – xalqaro jamoatchilikning ko'rinigi bo'lib butun bir aholi guruhlarini irqiy milliy, etnik yoki diniy alomatlariga ko'ra barchani jismoniy jihatdan qirg'in qilish uning asosiy maqsadidir. Milliy madaniy soxada genotsid – bu u yoki bu millatni irqiy yoki diniy guruhning tilini, dinini va madaniyatini: milliy tilda o'qitishni taqiqlash, bibliotekalarni, muzeylar, maktablar, tarixiy yodgorliklar, madaniy inshootlar va h.k.z. yo'q qilish demakdir.

Giperinflatsiya – narxlar o'ta tezlikda o'sadi.

Dunyoviylik – butushuncha plyuralistik, ya'ni xurfikrlik tamoyiliga asoslanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning dunyoviy tamoyili tomonidan dinning jamiyat hayotidagi o'rnini tushunish ham bag'oyat muhim masala.

Demokratiya – (Qadimgi zamon tilida “demos” xalq va “kratos” – hokimiyat) – “Xalq hokimiyati” ma'nosini anglatadi.

Demokratiyaning muhim xususiyati shundaki unda xalq hokimiyati ya'ni ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi qoidasi rasmiy ravishda e'lon qilinadigan fuqarolarning erkinligi va teng huquqliligi e'tirof etiladi. Bu shartlar jamiyat hamda uning a'zolari hayotining asosiy qonuni – ushbu davlatning konstitutsiyasida aks ettiriladi.

Davlat hokimiyati – Halq xokimiyatining maxsus qurilmasi – davlat orqali amalga oshiriladi. Davlat o'zining organlari orqali siyosiyo hokimiyatni amalga oshiradi. Hokimiyat davlat qo'lida to'planganidagina bir yerda mujassamlashishi va samarali amalga oshirilishi mumkin. Davlat o'ziga tegishli hokimiyat vositasida majburlov va ta'sir choralari qo'llaydi. Davlat hokimiyati qonunidir, ya'ni davlatning, davlat organlarining vakolatlari qonun bilan belgilab qo'yiladi.

Davlatning nazorat etilishi – demokratik davlatlar biror bir tarmog'ini juda kuchli bo'lib ketishini oldini oladigan turli xil tartibga solish ishlarini amalga oshiradi. Barcha demokratik davlatlarda, hukumat amaldorlari qonunga bo'ysunadilar va xalq oldida mas'ul hisoblanadi. Amaldorlar qonuniy xatti-harakatlari yoki boshqa bir qator sababli ishdan bo'shatiladilar.

Davlat boshqaruvining Prezidentlik shakli – davlat boshqaruvi- ning samarali shakllaridan biri, davlatni boshqarish san'ati, nazariyoti va amaliyotining taraqqiyoti natijasida taraxiy tenerigacha tayanib olingan asosiy yo'llardan biridir. Prezidentlik Respublikasi hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan davlat boshqaruvi shaklidir. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra BMTga a'zo 192 davlatdan 142 tasida Prezidentlik lavozimi mavjud bo'lib, ularning aksariyati Prezidentlik Respublikasidir. Prezidentlik Respublikasining Parlamentar Respublikadan farqi: Prezident bevosita xalq jamiyatidan saylanib davlat va ijroiya hokimiyat mas'uliyatini o'z ichiga oladi.

Davlatning bosh islohotchiligi tamoyili. Davlat – iqtisodiy o'zgarishlarning

tashabbuskori va bosh islohotchisidir. Ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan hozirgi bozor – davlat tomonidan tartibga solib turadigan bozordir.

Despotizm – 1) Davlat tuzilishi tizimi hokimiyatning zo‘ravonligiga, xalqning har qanday xuquqidan maxrum etilganligini xarakterlovchi cheklanmagan monarxiyaga 2) cheklanmagan hokimiyatga, xalqning erkin huquqini bo‘g‘ishga. Despot – cheklanmagan va qattiq qo‘l hukmdor, zolim.

Dotatsiya – davlat byudjetidan qaytarib bermaslik sharti bilan mablag‘ ajratish; iqtisodiyotga byudjet orqali ta’sir etish vositalaridan biri.

Yerga egalik – yer egalarining tegishli huquq va majburiyatlarini shart qiluvchi yuridik asoslarga muvofiq yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan yer maydonini haqiqiy egallash; xo‘jalik muomalasi va bozor mexanizmi bilan birgalikda ishlab chiqarishning muhim vositalaridan biri sifatida yerni tasarruf qilish shakli.

Yevro – “Yevropa” qit’asi nomining qisqartirilgani bo‘lib shu qit’aga tegishli pul birligini mamlakatlarning yagona valyutasidir.

1998 yilda Yevropaning yagona valyuta – iqtisodiy fazosi vujudga keltirildi. Yevropa markaziy banki tashkil qilinib, Yevropa ittifoqi mamlakatlarning umum pul-kredit siyosati amalga oshirila boshlandi va yanvardan Yevropa Ittifoqi bo‘yicha yagona pul birligi “Yevro” kiritildi. 2002 yil 1 iyuldan milliy valyutalar muomaladan uzil – kesil chiqarildi.

Jahon valyuta tizimi – jahon bozorining rivojlanishi asosida shakllangan va davlatlararo bitimlar bilan mustaxkamlangan xalqaro pul- kredit munosabatlari.

Jahon bozori – xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-biriga bog‘langan mamlakatlar o‘rtasidagi barqaror oldi-sotdi munosabatlari. Jahon bozori xizmat qiluvchi maxsus infratuzilmaga ega bo‘lib, u xalqaro uyushmalar, banklar, birlashmalar, auksionlar, birjalar va har xil fondlardan iborat.

Inson huquqlari – odamlarning yashash va faollashib borishi uchun ularga berilgan huquqlardir.

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari – insonga bekamu- ko‘st yashash imkoniyatlarini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarda o‘zining imkoniyat va talablarini amalga oshirishni ta’minlovchi huquqiy maqom. Inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklariga rioya etish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asosidir.

Inson omili – amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh yo‘nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beruvchi asosiy tamoyil. Inson omili tarkiban ikki muhim jihatni o‘z ichiga oladi. Birinchi jihat O‘zbekistonda jami ijtimoiy tuzilma, ta’lim va sog‘liqni saqlash, nafaqa bilan ta’minlash tizimini, axolini ekologik va boshqa xavf-xatardan himoya qilishdan iborat. Davlatning doimiy e’tiborini o‘zida ifodalaydi. Ikkinchi jihat esa yalpi ijtimoiy taraqqiyot

jarayonlarida shaxsning o'z ishtiroki, bunyodkorligi, yaratish zavqi, sa'y-harakatlari va shijoatini ifodalanishini nazarda tutadi.

Ijtimoiy hamkorlik – xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarining umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligi.

Ijtimoiy fikr – aholining muayyan guruhlari, qatlami, tabaqalarining voqelikdagi turli xodisalar va harakatlarga nisbatan baholovchi munosabatidir. Bunday baho ma'qullash, qoralash yoki betaraf pozitsiyada namoyon bo'lishi mumkin.

Impichment – ayblash, davlat jinoyatchisini so'zga tortish. Bir qator mamlakatlarda (Buyuebritaniya, AQSh, Yaponiya) davlat jinoyatchilarini. Mansabdor shaxslarni hattoki davlat boshlig'i – prezidentini konstitutsiyasida ko'rsatilgan moddalarni buzganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish qonun yo'li bilan mustahkamlangan. Ma'suliyat amalga oshirish qiyin qonunchilik palatasi, ushbu masalani ko'rib chiqish esa yuqori palataga yuklatilgan.

Inaguratsiya – Davlat boshlig'i lavozimiga kirishish oldidan o'tkaziladigan tantanali marosim. Yangi prezident va vitse-prezident hokimiyatini tantanali qabul qilish marosimi. Shuningdek haykallarni ko'rgazmalari ochilishida ham inaguratsiyani ifodalaydi.

Ijtimoiy yo'naltirilagn bozor munosabatlari – bozorning o'z-o'zini tartibga solish g'oyasiga asoslanadi ya'ni, talab va taklif, narxning erkin shakllanishi va raqobatchilik bozorining shart-sharoitlarini belgilaydi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodi erkin tadbirkorlikka, iste'mol tovarini ihtiyoriy tanlashga, bozordagi muayyan ahvoldan kelib chiqqan xolda tadbirkorlar imkoniyatlari belgilanishiga asoslanadi.

Import – ichki bozorda sotish uchun mamlakatga xorijiy tovarlar kiritish va xizmat ko'rsatish. Import miqdori va tarkibi mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rni va milliy iqtisodiyot ehtiyojiga hamda uning eksport salohiyatiga bog'liq.

Ijtimoiy inflyatsiya – narxlar ortadi, atrof muhit himoya etishga harakat qilinishi natijasida o'sadi.

Iqtisodiy tushkunchilikning, ishsizlikning ortishi bog'liqligi va io'lab chiqarishning qisqartirish bilan bog'liq **inflyatsiya**.

Islom fundamentalizmi – hozirgi islomdagi uch oqimdan (traditsionalizm va modernizm bilan birga) biri. Uning asosiy konsepsiyasi islomning fundamental prinsiplariga, ya'ni islom dinidagi dastlabki fundamental g'oyalarga qaytish demakdir.

Islom traditsionalizmi – hozirgi islomdagi uch oqimdan (fundamentalim va modernizm) biri. Islom traditsionalizmi tarafdorlari o'rta asr aqidalariga izchil

amal qilib, dinni har qanday isloh qilishlariga qarshi chiqadilar.

Islom modernizmi – hozirgi islomdagi uch oqimdan (traditsionalizm va fundamentalizm bilan birga) biri. Islom diniy va ijtimoiy ta’limotini yangi zamon sharoitlariga muvofiqlashtirish, islom dinining siyosiy, huquqiy, ijtimoiy muammolariga ta’lluqli aqidalarni yangicha taqdim etish, xo’jalik hayotini tartibga solish va islom prinsiplari asosida yangi taraqqiyot modellarini, yo’llarini ishlab chiqish.

Konstitutsiya – (lotincha “constitutio” – tuzilish, tartib) – Davlatning asosiy qonuni. Ma’lumki, har bir davlatda, uning ichki va tashqi hayotini tartibga solish uchun, davlat mexanizmi rejali ishlab turishini ta’minlash maqsadida yuzlab turli qonunlar ishlab chiqiladi. Ammo, bu qabul qilingan qonunlar va qonun osti aktlari davlat hayotining ayrim sohalariga tegishlidir. Bu qonunlarning barchasini bir maqsad, bir g’oya va bir tartibga bo’ysundiradigan yagona umumdavlat asosiy qonun kerak, anu shu muhim qonun Konstitutsiya deyiladi. Konstitutsiya barcha boshqa qonunlar, qarorlar, ko’rsatmalar va yechimlardan yuqori turadi, ularga nisbatan eng Oliy manbadir. Konstitutsiya davlatdagi tartib-qoidalarining huquqiy asosidir. Konstitutsiya aksariyat davlatlarda oldindan tayyorlanib, yozilib muhokamadan so’ng qabul qilinadi. Tarixda birinchi Konstitutsiya 1778 yilda AQShda qabul qilingan va hozirgacha u kuchda. Mustaqil O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan.

Konstitutsion hukumat – demokratik hukumat qonunga va ayniqsa yozma hujjat – konstitutsiyasiga asoslanadi. Konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlari ta’minlaydi. Shuningdek, ular qonunlar qanday tayyorlanishi va hayotga tadbiq etilishini ham o’zida aks ettiradi. Aksariyat konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlarini ta’minlaydi.

Konstitutsion burch – O’zbekiston fuqarolari Konstitutsiyada belgilab qo’yilgan, fuqarolar bajarishlari shart bo’lgan majburiyatlardir.

Kuchli davlat – omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruv tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma’naviyatga ega bo’lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy asosga ega bo’ladi. Uning qudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do’stlik va bag’rikenglik, har bir fuqaroning ongillik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

Kuchli jamiyat – mustahkam negizning barqarorligi ta’minlangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatlarga aylangan jamiyat.

Ko’ppartiyaviylik – hozirgi zamon jamiyatining ajralmas belgisi, uning demokratiyalashuvidarajasining muhim poydevor ko’rsatkichidir. Ko’ppartiyaviylikning o’ziga xos belgisi, bu siyosat xilma-xillik, jamiyatda bir

nechta siyosiy partiyaning mavjudligidir. Siyosiy partiyalar fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini parlament davlat hokimiyati, mahalliy vakillik idoralari, aholining o'zini-o'zi boshqarish uyushmalari va hokozolar orqali ifoda etish holda ro'yobga chiqarish maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi kishilar birlashmalaridir.

Koalitsiya (ittifoq) – Birlashish, kelishuv ittifoq. Partiyalar, davlatlar, davlatlar tomonidan umumiy iqtisodiy, siyosiy, harbiy maqsadlarga erishishi maqsadida tuziladigan ixtiyoriy ittifoq. Yevropaning bazi davlatlarida hokimiyatni birgalikda boshqarish maqsadida bir nechta siyosiy partiyalar birlashadilar. davlatlar aro harbiy siyosiy ittifoq misol etib fashizmga qarshi kurashda Gitlarga qarshi koalitsiya tuzilganligini misol keltirish mumkin.

Korrupsiya – (lotincha “corruptio” – poraga sotish, aynish, tanazzul) – mansabdor shaxsning boyish maqsadida o'z mansabi bilan bog'liq huquqlarni suiste'mol qilishdan iborat jinoyat. Korrupsiya eng qadimiy jamiyatlardan biri: Qaerda davlat bo'lsa, davlat apparatining turli tarmoqlarida, pastdan yuqorigacha, korrupsiya butun jahonga yoyilgan jinoyatlardan biridir. Bu masala bilan hattoki birlashgan millatlar tashkiloti alohida shug'ullanib maxsus kurslar qabul qilingan va korrupsiyani quyidagicha ta'riflagan:

1) Mansabdor shaxslar tomonidan davlat mulkini o'g'irlash, talon-taroj qilish va o'zlashtirish;

2) Noqonuniy foyda olish uchun o'z xizmat lavozimini suiste'mol qilish;

3) Ijtimoiy burch va shaxsiy tamagirlik manfaatlar o'rtasidagi ziddiyat.

Ko'p ukkladli iqtisod – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan bozor iqtisodiyoti. Bunda, asosan erkin bozor qonunlari va tamoyillari hukmronlik qiladi. Bozor iqtisodiyoti xilma-xil, bir biri bilan erkin raqobatlashadigan xo'jalik tuzilmalarini taqozo etadi, o'z tabiatiga ko'ra xilma-xil iqtisodiy asosga ega bo'lgan ishlab chiqarishdan iborat bo'ladi.

Kapital – o'zini-o'zi ko'paytiruvchi qiymat. Kapital doimiy va o'zgaruvchan, asosiy va aylanma kapitalga bo'linadi; sanoat kapitali, savdo kapitali, ssuda kapitali shakllarida faoliyat yuritadi.

Konvertatsiyalangan (erkin almashtiriladigan) valyuta – har qanday xorijiy davlatlar valyutalariga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtirilishi mumkin bo'lgan valyutalar.

Kredit – pul vositalarini, tovar va xizmatlarni ma'lum ustama haq to'lab qaytarib berish sharti bilan biror muddatga qarzga berish.

Liberallashtirish – ijtimoiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, iqtisodiyotga davlat aralashuvini, korxonalarga iqtisodiy erkinliklar va xususiy mulkning davlat tomonidan himoyalaniishi.

Lobbizm – qonuniyat organida faoliyat ko'rsatuvchi yirik monopoliyalar agentligi yoki tashkiliy guruh bo'lib ular manfatlarni ifoda etgan qonunlarni,

zakazlarini, yordamga beriladigan mablag'ni (subsidiyani) olish yo'lida qonun chiqaruvchilarni majburlash (kerak bo'lsa sotib olishi) yo'lini tutuvchi tushuncha.

Monarxiya – Davlat boshqaruv shakli bo'lib, unda xokimiyat tomonida bir shaxsning qo'lida davlat boshlig'ida bo'lib, u nasildan naslga, avloddan avlodga meros bo'lib o'tish (padsio, qirol, imperator, sulton va boshqalar) xususiyatiga ega. Monarxiya turli shakllarda nomoyon bo'ladi: cheklanmagan monarxiya, bu qo'ldorlik va feodal tuzumlarda amal qiladi. Cheklangan monarxiya (Parlament monarxiyasi) – xokimiyat monarxiya parlament tomonidan cheklangan. M: Buyuk britaniya, Norvegiya, Shvesiya, Daniya va boshqalar

Mustaqillik – (arabchadan – tobe emaslik, ixtiyori o'zidalik, qaram emaslik) – erkin va ozod ravishda, boshqalarning rahbarligisiz ish yurita bilish. Mustaqillik barcha jabhalarda munosabatlarni me'yor-mezonga soladi, har qanday kamsitish, tobelikni inkor etadi. Mustaqillik – o'zaro hurmat, bir-birlarini qadrlash, milliy va bashariy qadriyatlarga tayanib ish ko'rish, keng dunyoqarash va erkin tafakkurga tayanib yashash, fikrlash, o'z hayotini o'zi tashkil etish imkoniyati va amaliyotini bildiradi.

Millatlararo totuvlik – bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosi.

Mentalitet – (lotincha “mens” – aql, idrok) – jamiyat, millat, birlik yoki alohida shaxsning alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, mam'naviy salohiyati, ularning xayot qonunlarini taxlil etish kuchi, muxim ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati, jamiyat, millat yoki shaxsning mintaliteti uning o'ziga xos an'analari, rasm-rusmlari, urf-odatlari, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.

Millat – (arabcha “millat” – xalq) – kishilarning yagona holda so'zlashishi, yaxlit hududda isteqomad qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

Milliy ruhiyat – millatning ichki holati, kechinmalari, his tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y-fikrlari, maqsad va maslamlari, hamda qadriyatlari bilan bog'liq mulohazalar majmusidir. Yer yuzidagi har bir millat o'ziga xos irodasi, his-tuyg'u, did, hulq, fe'l-atvori, ko'ngil, qalb, yurak sirlari olamiga egadir.

Milliy o'zligini anglash – olamni bilish, unda ro'y berib turgan murakkab hodisa va jarayonlar mohiyatini ilmiy faximlab olish demakdir. Milliy jihatdan o'zini anglagan insongina mamlakati va millati oldida turgan asosiy maqsad-muddaolar nimadan iboratligini tushunib yetadi, o'zining el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini chuqur anglaydi

Milliy qadriyatlarni asliga keltirish va rivojlantirishda xalqimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlari, harxil bayramlari, boy qadimiy me'rosi

o'zining alohida o'rni va ahamiyatiga ega. Madaniy-ma'naviy merosimiz, asriy an'analar-o'tmishdan, avlod-ajdodlarimizdan bizlarga yetib kelgan, bugungi hayotimiz uchun xizmat qilayotgan eng katta ma'naviy boylik, buyuk hazinadir.

Mahalla– (arabcha “mahalla” – joy, o‘rin, makon) – O‘zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarda, asrlar davomida shakllanib, faoliyat kursatayotgan, aholi yashaydigan ma'muriy-hududiy birlik – uyushma.

Milliy valyuta – mamlakat xududida barcha tovar va xizmatlar uchun narxlarni ifodalash vazifasini o'tuvchi va qununiy ximoyalangan yagona to'lov vositasi. Har bir mamlakatning o'z pul birligi mavjud. Rossiyada rubl, AQSh dadollar qonuniy to'lov vositasi xisoblanadi. Tartibda turli bulimlar, qimmatbazo toshlar va metallar pul vazifasini o'tgan. Hozirgi paytda muammoda faqat qog'oz pullarishlatiladi va ularning qiymati oltin yoki qimmatbaxo metallarga bog'langan.

Milliy daromad – moddiy ishlab chiqarish sohalarida bir yilda yangidan hosil qilingan qiymat yoki yalpi ichki masulotning ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlabchiqarish vositalari qiymati chegirib tashlangandan so'ng qolgan qismi.

Monopoliya (yunoncha – “mono” – tanho, “polio” – sotaman)– iqtisodiyotning biron-bir sohasida yakka hukmronlik.

Mulkchilik – kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o'zlashtirish yuzasidan paydo bo'lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi ijtimoiy munosabatlar.

Narx (baho) – tovar qiymatining pul shakli; bozor iqtisodi mexanizmida amal qiluvchi iqtisodiy dastak.

Nodavlat va jamoat tashkilotlari – davlatga qarashli bo'lmagan, ammo ma'lum qonunlar yoki me'yoriy hujjatlarga bo'ysungan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

Ombudsman – inson huquqlarini himoya qiladigan maxsus tashkilot. U inson huquqlarini turli ma'muriy organlardan himoya qilishni maqsad qilib qo'yadi.

Ommaviy axborot vositalari – gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, axborot agentliklari, televideniya (kabelli, efirli televideniya) va radio eshittirishlar, hujjatli kino, axborot tizimi, shuningdek doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlardir.

Oppozitsiya, muxolifat – kelishmovchilik, qaramaqarshilik, ziddiyat ma'nosini anglatib, rasmiy siyosatga, davlat tuzumiga mos bo'lmagan nuqtai nazar, alohida siyosiy yo'l deb tushunish mumkin. Oppozitsiya parlament doirasida, undan tashqarida va siyosiy partiyalar ichida bo'lishi mumkin.

Partiya – so'zi lotincha, “pars” – “qism”, “guruh” so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, u yoki bu jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy guruhlar, tabaqalar,

katlamlarning bir qismini, odatda ularning ilg'or va eng faol qismini birlashtiradigan siyosiy tashkilotni anglatadi.

Parlament – (fransuzcha “parler” – so‘zlash; Parlament rasmiy so‘zlashish joyi, notiqlik koshonasi, suhandonxona). Davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi. Parlament birinchi bor XXII asrda Angliyada davlat hokimiyatining vakillik organi sifatida vujudga kelib, XVII-XVIII asrlarda boshqa mamlakatlarga etildi. Parlament davlatdagi aniq vaziyatga qarab bir palatali yoki ikki palatali bo‘lishi mumkin. Parlament Fransiyada senat va milliy assambleyadan, Angliyada lordlar palatasi va jamoalar palatasi, AQSh da senat va vakillar palatasidan iborat. Parlament qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. U qonun bo‘yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo‘lib, hududiy saylov okruglari bo‘yicha, odatda ko‘ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to‘lgan fuqarolardan saylanadi.

Parlament fraksiyasi – parlament uchun saylovlarda har bir partiya o‘z a‘zolaridan deputatlikka nomzodini qo‘yib, ko‘proq ovoz to‘plash maqsadida kurashadilar. Siyosiy partiya a‘zolaridan parlamentga deputat etib saylanganlari o‘z partiyasi siyosiy yo‘lini o‘tkazish uchun bir guruhga birlashadi. Bu guruh partiya fraksiyasi deyiladi va parlament tomonidan fraksiya sifatida ro‘yxatga olinadi.

Prokuratura – (lotincha “procurate” – g‘amxo‘rlik qilish) davlat tizimidagi mavjud jinoyat ishini qo‘zg‘atuvchi, ayblovchi va sud jarayonida davlat nomidan ayblov olib borish vakolatiga ega bo‘lgan organ.

Privatizatsiya – davlat mulkini, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiy lashtirish. Privatizatsiya davlat mulki monopliyasini tugatish, erkin tadbirkorlik tashabbusiga yo‘l ochish, bozor iqtisodiyotini rag‘batlantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Pul – hamma tovarlar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent bo‘lmish maxsus tovar, bozor iqtisodiyotining eng asosiy vositasi.

Respublika – (lotincha “res” – ish, faoliyat va “publikus” – jamoatchilik faoliyati) – davlatni boshqarishning asosiy shakllaridan biridir. Boshqarishning Respublika shakli o‘rnatilgan mamlakatlarda davlat xokimiyatining oliy organlari muayyan muddatga saylanib qo‘yiladi.

Tarixda Respublikaning har xil turlari bo‘lgan. Qadimgi Yunonistonda va o‘rta asrlar davrida, ayrim davlatlar boshqarish shakliga ko‘ra, aristokratik yoki demokratik respublika shaklida bo‘lgan. XIX-XX asrlarga kelib, respublika davlatini boshqarishning eng keng tarqalgan shakliga aylandi. Hozirgi davrda respublikaning uchta asosiy turi mavjud: Prezidentlik respublikasi, parlamentar respublika va aralash respublika.

Referendum – (lotincha “referendum” – e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan xabar)

jamiyatni demokratik boshqarish jarayonida qo'llaniladigan tadbirlardan biri, ba'zi muhim masalalarni umumxalq ovozigacha, umumxalq so'roviga, xalq muhokamasiga qo'yib hal etish. Referendumni davlatning oliy organi o'tkazadi. Referendum – jamiyatni demokratik asosida boshqarishni ta'min etishga erishishi uchun olib boriladigan ko'pchilik kurashida erishilgan yutuqlardan biri. Referendum shakllari uch xil bo'ladi: 1) umummilliy referendum – butun mamlakat miqyosida o'tkaziladi; 2) Mahalliy referendum – federativ davlat sub'ektlarida o'tkaziladi. 3) Ma'muriy hududiy referendum esa hududiy birlikda o'tkaziladi. 2002 yil 27 yanvar referendumida xalqimiz ikki savolga javob beradi: 1. O'zbekiston parlamenti ikki palatani bo'lishini ma'qullaysizmi? 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolati besh yildan yetti yilga uzaytirilishi ma'qullaysiz? Xalqimiz bu ikki savolga “ha” deb javob berdi.

Raqobat – ishlab chiqarish munosabatlarining sub'ektlari (ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, tadbirkorlar, yollanma ishchilar va b.) o'rtasida qulayroq ishlab chiqarish sharoitiga, arzon ishlab chiqarish resurslari va ishchi kuchiga ega bo'lishi, unumli texnologiya, ish joyi, yaxshi bozorni qo'lga olish, umuman, yuqori daromad olish imkoniyati uchun olib boriladigan kurash.

Suverenitet – (fransuzcha “Souverainite” – mustaqillik, oliy hokimiyat) uning mazmuni: Davlat suvereniteti – davlatning ichki va tashqi siyosatidagi to'la mustaqilligi demakdir. Davlat suverenitetligining asosiy belgilari: A) Davlatning barcha organlari va fuqarolarga qaratilgan qonunlarni qabul qilish; B) Urush va janglik masalasini hal qilish; V) Oxirgi bosqichda sud hokimiyatini amalga oshirish; G) Mansabdor shaxslarni taynlash; D) Avf etish – jinoyat hosil qilgan shaxsni jazodan ozod qilish. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasida davlat suverenitetligi masalasida alohida bob ajratilgan bo'lib uning birinchi moddasida “O'zbekiston – suveren demokratik respublika” deyiladi.

Siyosiy tuzum – Davlat ichki tuzilishi kengashlarining o'zaro aloqalari va ta'sirining eng muhim, doimiy xususiyatlarini ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining majmui, yig'indisi. U siyosiy hokimiyatni umuman davlat muassasalari tizimini va uning asosiy tashkiliy shakllarini belgilab beradi. Siyosiy tuzum har bir mamlakatning mavjud shart sharoitlarini inobatga olib belgilanadi. Siyosiy tuzum, odatda mamlakat konstitutsiyasida va shu asosida chiqarilgan boshqa qonuniy hujjatlarda mustahkamlab qo'yiladi.

Siyosiy institutlar – Jamiyatning qaror topgan davlat tashkiloti muassasalari va undagi lavozimlar tarkibi tushuniladi. Ular muayyan siyosiy faoliyatni amalga oshiradilar.

Siyosiy partiya – (lotincha “Part”, “Parts” – qism, guruh, eski o'zbekchada arabcha “Firqah” so'zi – guruh to'da) – umumiy g'oya va manfaat, ijtimoiy siyosiy maqsadlar asosida odamlarni ixtiyori ravishda unashtiruvchi turg'un tashkilot,

fuqarolik jamiyati bilan davlatni biri-biriga bog'lovchi eng muhim vositalardan biri, hozirgi zamon huquqiy demokratik davlati xayotining zaruriy omillaridan biri. Siyosiy partiyalar saylov tizimi vositasida markazdagi yoki joylardagi hokimiyatni qo'lga kiritish yohud undagi lavozimlarni saylovdaolgan ulushlariga qarab muttanosib ravishda taqsimlab olishga harakat qiladi.

Saylov tizimi – huquqiy me'yorlarda mustahkamlab qo'yilgan, shuningdek, davlat va jamiyat institutlari faoliyatlari tajribasida shakllangan vakillik organlari yoki ayrim rahbarlik vakilini saylashni o'tkazish va tashkil etishga doir tartibotdir. Saylovlar tizimi – siyosiy tizimning tarkibiy qismidir.

Saylov huquqi – ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchisi, saylovni tashkil etish va o'tkazishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar yig'indisidir; ikkinchi ma'nosi fuqarolarning saylov huquqi, ya'ni ovoz berish, saylanish, saylov davrida va boshqa tadbirlarda ishtirok etishdir.

Senat – (lotincha “senatus, senex so'zidan” yoshi ulug', hayotni ko'rgan, tajribali degani) – jahon ijtimoiy-siyosiy tarixida qadimdan ma'lum tushuncha. Miloddan avvalgi Rim davlatida urug'lar oq soqollarining kengashi “Senat” deb atalgan. Senat xukumatining oliy organlaridan biri. Hozirgi davrda AQSh, Fransiya, Italiya kabi kator davlatlarda shu jumladan O'zbekistonda qonun chiqaruvchi oliy organ ikki palatasining biri.

Sanatsiya (lot. sanatio – davolash, sog'lomlashtirish) – korxona va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini, uning barbod bo'lishi oldini olish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida davlat yoki boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan moliyaviy yordam berish.

Sud – muayyan davlat qonuni bilan mustahkamlangan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa kategoriyadagi ishlarni ko'rib chiqish va hal etishni amalga oshiruvchi davlat organi.

Soliqlar – davlatning korxona va tashkilotlaridan hamda aholidan undiriladigan pul mablag'lari.

Tolerantlik – (lotincha “Tolerantia” – chidamlilik, bag'rikenglik, sabr-toqatlik, yon berish) – boshqa dinlar ijtimoiy tartiblar milliy va diniy urf-odatlar, o'zga dini va siyosiy qarashlar, e'tiqodlar va tursush tarziga nisbatan sabr bardoshlik, chidamlilik, andishalilik bo'lish manolarini anglatadi. Demak tolerantlik deganda turli xil danlarni inkor etmaslik; dinlararo bag'rikenglik tushuniladi.

Totalitarizm – (lotincha “Totalitare” – yaxlit, to'liq) – bir shahsning, ijtimoiy sinf yoki guruhning (masalan, harbiylar guruhi) yakka hokimligiga so'zsiz bo'ysunishga asoslangan, vaqtincha va o'tkinchi siyosiy tartib, davlatni boshqarish shakllaridan biri. Totalitar davlat boshqaruvi shakli o'rnatilgan mamlakatlarda jamiyat hayotining barcha sohalarida davlatning to'la hukmronligi o'rnatiladi,

oshkora ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning faoliyati ustidan qattiq nazorat olib boriladi. Demokratik tashkilotlar faoliyati cheklab qo'yiladi. Bir siyosiy partiyaning yakka hukmronligiga asoslangan.

Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” – milliy davlatchiligimizning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lidir. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” besh tamoyilga asoslanadi.

Erkinlashtirish – mamlakatning demokratik jamiyatga o'tish va islohotlar o'tkazish jarayonida mavjud bo'ladigan turli to'siqlar, cheklashlar va yon berishga majbur etadigan omillardan qutilishga qaratilgan amaliy faoliyatdir. U demokratik jarayonlarning samarali rivojiga yangi kuch, quvvat va ilxom bag'ishlash imkoniyatini yaratadi.

Erkin saylovlar – xalqqa o'z liderlarini tanlash huquqini hamda liderlar va xalqqa o'z fikrlarini baxsli masalalarda erkin bildirish huquqini beradi. Saylovlarda saylangan shaxslar chindan ham xalqning vakillari ekanligiga ishonitirish uchun vaqti-vaqti bilan uchrashuvlar o'tkazib turadilar. Saylanish imkoniyati bunday vakillarni xalq fikr irodasiga e'tibor berishlarini kafolatlash uchun ko'mak bo'ladi.

YuNIDO – BMTning sanoat taraqqiyoti bo'yicha tashkiloti. Rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoatini rivojlantirishga ko'makla- shishdan iborat bo'lgan BMT ning ixtisoslashgan muassasasi. 1946 yilda tashkil etilgan. 1995 yilda 166 ta davlat a'zo bo'lgan. O'zbekiston ushbu tashkilotga 1994 yil aprelda a'zo bo'lib kirgan.

YuNKTAD – BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi. BMT Bosh Assambleyasining xalqaro savdo tashkiloti bo'lmagan organi. 1964 yilda tashkil etilgan bo'lib, 168 ta davlat unga a'zodir. Asosiy vazifalari: xalqaro savdoni, davlatlar o'rtasida teng huquqli o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning amal qilishi bo'yicha har xil tavsiyalar ishlab chiqish. YuNKTAD qarorlari rezolyusiyalar, bayonotlar singari shaklda bo'lib, tavsiya xususiyatiga egadir. Uning rahbarligida ko'p tomonlama bitimlar va konvensiyalar ishlab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi YuNKTAD ga 1992 yilda a'zo bo'lgan.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – bu mamlakatning iqtisodiy faoliyatini umumlashtirib ifodalovchi natijaviy ko'rsatkichdir. U mazkur mamlakat hududida joylashgan barcha xo'jalik sub'ektlari tomonidan pirovard iste'mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qiymatini anglatadi.

O'tish davri – taraqqiyotga to'siq bo'lgan avvalgi davlat siyosiy hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy negizlari bilan bog'liq barcha mexanizmlarigajavob beradigan yangi mexanizmlarni shakllantirishga ketadigan oraliq vaqt, davr. Bilvosita demokratiyada – bu ko'pincha “sof demokratiya” deb ham ataladi, odamlar o'z jamoalari uchun zarur qonunlar ishlab chiqish maqsadida bir joyda uchrashadilar. Bunday demokratiya qadimgi Yunonistondagi Afina shahar

ko‘rinishidagi davlatda amalga tadbqiq qilingan va hozirgi kunda yangi Angliya shahar majlisida ham qo‘llanilib kelinmoqda.

O‘z-o‘zini boshqarish – bu tushuncha jamiyat ishlariga rahbarlik qilishning shunday tizimi bilan bog‘liqki, unda kishilar o‘z faoliyatining asosiy masalalarini o‘zlari hal etadilar, o‘zlari uchun majburiy bo‘lgan hulq atvor qoidalarini o‘zlari ishlab chiqadilar va qabul qiladilar hamda ularga rioya etadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati – O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Senati (Yuqori palatasi) hududiy vakillik palatasidir.

Qonun – oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan, davlatning qonun chiqaruvchi muassasasi tomonidan yoki aholi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, referendum o‘tkazish talablariga muvofiq qabul qilingan va o‘zida qonunning amal qilish hududi, muddati va shaxslar doirasida huquqiy munosabatlar sub’ektlari faoliyatining umumiy namunasini mujassamlashtirgan normativ-huquqiy hujjat.

Qonunchilik palatasi – bu O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasidir. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarning professional. doimiy faoliyat ko‘rsatishiga asoslanadi.

Huquqiy demokratik davlat – jamiyat taraqqiyoti va davlat shakllarining rivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan, davlatni tashkil qilishning eng mukammal shakli va mazmuni. Huquqiy demokratik davlat uchun kurash bundan 4-5 asr muqaddam boshlanib, faqat XX asrning ikkinchi yarmida haqiqatga aylana boshladi. Huquqiy davlatning va faoliyat ko‘rsatishida davlat organlari, mansabdor shaxslar, barcha tashkilotlar bevosita ishtirok etadilar. Huquqiy davlatda konstitutsiya va qonunning ustuvorligi tobora keng va to‘la ta‘minlanadi.

Hokimlik instituti – milliy an‘analaridan kelib chiqib tashkil etilgan. 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “O‘zbekiston poytaxti – Toshkent shahrining maqomi va uni boshqarish tizimi to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan Toshkent shahrida vakillik va ijro etuvchi hokimiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan Hokimlik instituti tashkil etildi. 1992 yilning boshida bunday amaliyot butun respublikada amalga joriy etildi.

Hokimiyat va boshqaruv tizimlari – davlat hokimiyati va boshqaruvni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimidir.

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O'zbekiston strategiyasi” “O'zbekiston”, 2021.- 464b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvar “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentabr “Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4910-son Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida” 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

13. Қаҳрамон Ражабов. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. Тошкент. Маънавият. 2002
14. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). T.: Sharq. 2000.
15. Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.

16. Sagdullayev A.S., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. -T., 2006.
17. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. -T.: Uzbekistan. 2009.
18. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. (o'quv qo'llanma). -T.:Ma'rifat, 2009.
19. Yo'ldoshev S.V., Tojiboyev M. Etnotoponimika. O'quv qo'llanma/-Farg'ona: 2021.
20. Ahmadaliyev Y. Farg'ona viloyati toponimlari. Farg'ona., "Farg'ona".2009
21. GumilevL. Etnogenez i biosfera zemli. -L.: Gidrometizdat. 1990.
22. Bobrov I.V. i dr. Istoriya mirovix sivilizatsiy chast I. Uchebnoye posobiye. Tyumen 2004
23. Bobrov I.V. i dr. Istoriya mirovix sivilizatsiy chast II. Uchebnoye posobiye. Tyumen 2004
24. SH.Ergashev. Qadimgi sivilizatsiyalar. - T.: O'zbekiston, Tixonravov Y.V. Geopolitika. M., 2000.
25. Gadjiyev K.S. Vvedeniye v geopolitiku. M., 2001.
26. Nartov N.A. Geopolitika. M., 2002.
27. Xo'janov B.A. Geosiyosat asoslari. T., 2002.
28. Tolipov F. Bolshaya strategiya Uzbekistana v kontekste geopoliticheskoy i ideologicheskoy transformatsii Sentralnoy Azii. T., 2005.
29. Safoyeov S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T., 2005.
30. Bhuvan Garg. Teachingofhistory. India. New Delhi.: Rajatpublications. 2010.
31. James B. M. Schick., Teaching History Witha Computer: A Complete Guidefor College Professors. USA. 2009.
32. Grinin L. YE. O stadiyax evolyutsii gosudarstva. Problemi teorii // Istoriya i sovremennost. 2006. № 1.
33. Gosudarstvo na Drevnem Vostoke. M., 2004.
34. Kaspe S.I. Imperii genezis, struktura, funksii // Kaspe S.I. Politicheskiye issledovaniya. M., 1997.
35. Subtelny M.E. Timurids in Transition Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. - Leiden-Boston, 2007.
36. Mazar Documents from Xinjiang and Ferghana (Facsimile) 3. Edited by A.Muminov, N.Abdulahadov, K.Yayoi. - Tokyo: Tokyo University of Foreign Studies, (StudiaCulturaeIslamicae, 88), 2007.- 234 p.

IV. Internet saytlar

37. <http://natlib.uz>-Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
38. <http://yedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
39. <http://lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy

bazasi

40. <http://lib.bimm.uz>- Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

41. <http://ziyonet.uz>- Ta'lim portali Ziyonet

42. <https://tarixinstituti.uz/uzb>/Bo'limlar

43. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti

44. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti